

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
MUQIMIY NOMIDAGI QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

Qo'lyozma huquqida

UDK

HOLDAROVA MUHAYYO
RUSLANBEKOVNA

*„O'QISH KITABI” DARSЛИKLARI UNING ”UZVIYLASHTIRILGAN
DAVLAT TA'LIM STANDARTI VA O'QUV DASTURI”
TALABLARIGA MOSLIGI*

5A111701 – „BOSHLANG'ICH TA'LIM”

MAGISTRI

akademik unvonini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi,
dotsent

M.HALILOV

«Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulugʻi maktab boʻlsa, kasblarning ichida eng sharaflisi oʻqituvchilik va murabbiylikdir»

Islom Karimov «Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch»

Mundarija:

Ishning umumiy tavsifi.....5-bet.

Kirish. *“Qiyin fan yoʻq, faqat hazm etilishi qiyin boʻlgan izohlargina bor, xolos”.*(Gersen).....**10-bet.**

I.Bob. Oʻqish kitobi darsliklari va oʻqish darslarining maqsad va vazifalari, hususiyatlari.....**13-bet.**

I.1.Davlat taʼlim standarti talablari va boshlangʻich sinf oʻqish darslari.....**21-bet.**

I.2.Oʻqish kitobi darsliklari va Davlat taʼlim standarti talablarida uzviylik.....**30-bet.**

I.3. *„Aqlli boʻlish kifoya emas, muhimi aqlni ishlata bilishdadir”.*(R.Dekart)..... **42-bet.**

II.Bob. Davlat taʼlim standarti talablarining oʻqish kitobi darsliklarida aks etishi.....**43-bet.**

II.1.1-va 2-sinf oʻqish kitobi darsliklarining Davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturi talablariga mosligi.....**43-bet.**

II.2. 3-va 4-sinf oʻqish kitobi darsliklarining Davlat taʼlim standarti talablari bilan mutanosibligi.....**58-bet.**

II.3.*„Bilimsiz yoki chalasavod farzand –yoʻqotilgan farzanddir”.*
(Jon Kennidi)..... **68-bet.**

III.Bob. O'qish darslari samaradorligini oshirishning muhim shartlari.....**70-bet.**

III.1. O'quvchilarni o'qish darsiga bo'lgan qiziqishini oshirishning yo'llari.....**77-bet.**


III.2.,,*O'qish –o'rganish uchun hech qachon ham keksayib qolganman dema''*. (G. Gersen)..... **78-bet.**

Xulosa.....**79-bet.**

„Hayotdagi eng foydali narsa –shahsiy tajribadir''.(Vilter Shott)

Adabiyotlar ro'yhati.....**81-bet.**

Ilovalar.....**84-bet.**





Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

A handwritten signature in black ink, appearing to be 'M. Karimov'.

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi:

Mustaqillik sharofati bilan ona-vatanimizda ham yangilanish, rivojlanish davri boshlanib, ijtimoiy hayot umumjahon andozalariga mos taraqqiyot yo'nalishlariga jadal su'ratlar bilan kirib bormoqda. Yurtimizda barcha sohalarda, shu jumladan, ta'lim sohasida ham ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ta'lim sohasining rivojlanish bosqichida bayroqni qo'lda tutayotgani, barchamizni birdek quvontirmoqda. Ta'lim sohasining sayqal olib borayotgani har bir darslik ustida ishlashni, shuningdek har bir mavzular va jumlar ustida munozaralar olib borishni taqozo etmoqda. Darsliklarimizning mazmunan boy, ko'rinish jihatdan ko'rkam bo'lishi, eng muhimi Davlat ta'lim standartlariga to'la qonli javob bera olishi lozim. Darslikdagi har bir bo'limdan to, kichik bir mavzugacha har biri talablarga javob bera olishi kerak.

Ushbu mavzuning hozirgi kundagi dolzarbligi ham, darsliklarning Davlat ta'lim standartlari talablariga mosligi va mutanosibligini ko'rishdadir. Masalan: men ushbu ishimda, Davlat ta'lim standartining o'qish darsligi bilan mosligini ko'rib o'tdim va o'rganib chiqdim. Shuningdek bir qator savollar paydo bo'ldi. Demak, o'qish darsliklarimiz Davlat ta'lim standartlari talablariga javob bera oladimi?

-hozirgi kundagi ko'rinishi qanday?

-kelajakda yana nimalar qilish kerak? Kabi bir qator savollarga javob topamiz. Hozirgi kunda Davlat ta'lim standartining yangi 2010-yilda nashr qilingan soniga nazar tashlasak, u juda mukammal ishlanganiga guvoh bo'lamiz. Ho'sh o'qish darsliklarimiz bu ta'lim standartiga javob

bera oladimi?-ular o`rtasida qanday mutanosibliklar bor? Shuningdek bugungi kunda darsliklarimiz ustida qanday ishlar olib borilmoqda. Demak, ushbu ishim shu jihati bilan juda dolzarbdir.

Tadqiqot ob'ekti va predmetining belgilanishi. Tadqiqot ishining manbaalari 1-2-3-4- sinflarda o`qitilayotgan o`qish darsliklari va Davlat ta`lim standartidir.

Shuningdek qo`shimcha qo`llanmalar, Prizdent asarlari, "Boshlang`ich ta`lim", "Xalq ta`limi", "Til va adabiyot" jurnallari, "Ma`naviyat asoslari" va "Interfaol ta`lim usullari" internet ma`lumotlari shu kabilardir. Ushbu manbaalardan foydalanib, mavzu ochib beriladi. Jumladan, amaliy yondashuv, darslarni kuzatish, ya`ni amaliyot davomida ham buni yaqqol aniqlash lozim.

Magistirlik dissertatsiyasining maqsadi va vazifalari:

Darsliklarimizning kun sayin shukuh ila o`zgacha ruh kasb etayotgani barchamizni quvontiradi, albatta. Ayniqsa, O`qish darsliklarimizning yorqin sahifalaridan o`rin olayotgan ma`naviy va ma`rifiy, shuningdek barcha jabhalarni qamrab olayotgan mavzular-u darslik muqovalarining bezaklari barchani birdek quvontirmoqda. Hozirgi davrda fan va texnikaning rivojlanish bo`sag`asida borayotgan ekanmiz, zamon bilan hamnafaslikda izlanishimiz zarur. Darsliklarimizni ko`zdan kechirgan holda ahamiyatli bo`lishimiz, ulardagi har bir yangilik va kamchiliklarni chetda qoldirmasligimiz kerak. Bunday yangiliklar va o`sishlarni rivojlantirish, kamchiliklardan forig` bo`lishiga harakat qilish kerakdir. Ho`sh, o`qish darsliklarimiz bugungi kunda qay ko`rinishda, Davlat ta`lim standartlari talablariga javob beradimi? Shunday darsliklarni

yaratishimiz juda muhimligini bilamizmi? Kabi savollarga javob topamiz. Demak, magistirlik ishimning eng asosiy maqsadi ham o`qish darsliklarining Davlat ta`lim standarti talablariga javob bera oladiganlik darajada o`rganishdir.

Davlat ta`lim standartlari ta`lablariga javob bera oladigan o`qish darsliklarini qanday yaratish va targ`ib etish ishning eng asosiy vazifalaridan biridir.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Mavzu yangi va keng qirrali bo`lib, shu bilan birga ko`p izlanish va amaliy yondashuvni talab qiladi. Mavzu ilgari o`rganilmagan sanalib, boy ma`lumotlarga egadir. Ishni Davlat ta`lim standartlari va o`qish darsliklari bilan uzviy bog`lagan holda o`rganish juda muhim sanaladi. Shuningdek ishni izchil ko`rib o`tish, hozirgi darsliklarimizning, ya`ni, o`qish darsligining ma`nan boylik jihatini, ko`rinishi, qay darajada ekanini o`rganish orqali ham mavzuning o`rganilish darajasi aniqlanadi. Demak, ishni o`qish darsliklariga tayangan holda o`rganish va uni dastur talablariga qiyosiy bog`lash orqali ish keng o`ganiladi.

Mavzu bo`yicha qisqa adabiyotlar tahlili. Munozaraga tashlanayotgan muammo yuzzasidan atroflicha tadqiqot qilingan bo`lsa-da ammo quyi sinflarda o`qish darsliklarining Davlat ta`lim standartlari talablariga muvofiqligi bo`yicha u qadar yetarli ishlar yaratilgan deb o`ylamayman. Shu bois ushbu ish tadqiqi haqida shaxsiy mulohazalarga ega edim va shu bahonada magistirlik dissertatsiyamda quyidagi mavzuni baholi qudrat tahlil qilishga astoydil kirishdim.

Magistirlilik ishida qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Ishning asosiy manbaalari o'qish darsligiga tayangan holda o'rganiladi. Ish amaliy usulda o'rganiladi. O'qish darsliklari va Davlat ta'lim standartlari bir-biriga taqqoslash ya'ni, qiyoslash yo'li bilan ko'rib chiqiladi. Shuningdek ishni ko'rgazmali metodlardan, suhbat, tushuntirish metodlari orqali ham olib boriladi va bu ish izlanuvchidan yuqori darajadagi e'tiborlilikni talab etadi. Tatqiqotda turli metodlardan foydalanish bilan bir qatorda turli o'yin usullaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Tatqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Ishda o'qish darsligining Davlat ta'lim standarti talablariga qay darajada javob bera olishi yoritib o'tilgan. Ishning eng asosiy maqsadi va vazifalari imkon qadar yoritishga harakat qilingan. Ishni o'rganish davomida uni nazariy jihatlarini bir qator fikrlar va takliflar orqali berilgan. Ishning amaliy ahamiyatini esa darslikning qayta nashrlarida ko'rishimiz mumkin.

Ishning ilmiy yangiligi. Ish ilmiy yangiliklarga juda boydir. Yuqorida ishning o'rganilish darajasini ko'rganimizda mavzuning ilgari deyarli o'rganilmaganligini aytib o'tgan edik. Shu sababli ham ish ko'plab yangiliklarga boydir. Masalan: ishning I-bobida o'qish darslari qanday maqsadlarni o'z oldiga qo'ygani-yu, qanchalar bu vazifalarni ado etayotganiga guvoh bo'lasiz. II-bobda esa Davlat ta'lim standartida ko'rsatilmagan bir qator mavzularga ko'zingiz tushadi: Ya'ni 1-sinf o'qish darsligida Davlat ta'lim standartida ko'rsatilmagan Yusuf Hos Hojibning "O'quv va bilim" matni darslikda berilgan. Shuningdek

Abdulla Avloniyning “Taqsim” rivoyatida ham shunday holat koʻzga tashlanadi. III-bobda ham oʻquvchilarni qiziqishga undovchi bir qator tavsiyalarga guvoh boʻlasiz. Hatto boʻlimlarning ham mutanosibligi eʼtiborni tortadi. Demak, bir soʻz bilan aytganda ish ilmiy yangilikka juda boydir.

Darsliklarini qayta keng tarzda oʻrganish taʼlim standartiga monand qayta yaratish orqali yoshlarni yanada bilim sifatini oshirishimiz mumkindir.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Ushbu dissertatsiya quyidagi tuzulishiga ega: reja, ishning umumiy tavsifi, kirish soʻzi va III- bobdan, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar, ilova, taklif va tavsiyalar orqali 88 sahifani tashkil etadi.

*“ O’rta asr pedagogi gapirib beradi,
Yaxshi o’qituvchi tushuntiradi.
Ajoyib pedagog ko’rsatib beradi,
Mohir o’qituvchi berilib tushuntiradi”
(ArturVard)*

Kirish.

“Qiyin fan yo’q ,faqat hazm etilishi qiyin izohlargina bor, xolos”(Gersen). Yurtboshimiz Islom Abdug’anivich Karimov bejiz bu so’zlarni ta’kidlamagan „*Yoshlari bilimli yurt qudratli bo’lur*”. Shu o’rinda aytishim joizki, yurtimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar shu tarzda serqirradi, bunday imkoniyatlardan oqilona foydalanmaslikning o’zi ojizlikdir. Mamlakatimizda ayniqsa, ta’lim sohasidagi o’zgarishlar diqqatga sazovardir. Ta’lim grantlaridan to olimpiada musobaqa larigacha yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi ochiq. Har bir fan salohiyati o’ziga hosdir. Ayniqsa, ta’lim sohasi haqida gap borar ekan, boshlang’ch ta’limning o’rni beqiyos. Boshlang’ich ta’lim eng murakkab bosqich sanaladi. SHunday bo’lsada mashaqqatli va sharaflidir. Ta’lim sohasining bu zayilda isloh etilishi barchamizni birdek quvontiradi, albatta. Yuqorida ta’kidlaganimdek, boshlang’ich talim bosqichida o’sishlarning samarasi bu ertangi kunimiz garovidir, desak yanglishmaymiz. CHunki, har bir ishning ilk po’ndamenti bo’lganidek, ta’lim sohasining ham po’ndamenti bu boshlang’ich ta’limdir. Hozirgi,

kunda boshlang'ch ta'limga berilayotgan e'tibor boshlang'ch ta'lim o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda. Yoshlarimizni manan yetuk, jismonan baquvvat qilib tarbiyalashdek ulkan vazifa zimmasida turgan ta'lim sohasi vakillariga faqat va faqat salomatlik tilash darkor. Yuqorida boshlang'ch ta'lim sohasi haqida gapirib o'tdik. Boshlang'ch ta'lim o'z jarayon va turli fanlar orqali o'quvchilar bilimini oshoradi va baholab boradi. Bu fanlar orasida ayniqsa, o'qish darsining o'rni beqiyos. O'qish bu- adabiyot fanining ilk debochasi ham deyish mumkun. Boshlang'ch ta'lim jarayonidagi eng qiziqarli fanlardan sanaladi. O'quvchilarning juda ko'p qismi bu darsda o'z fikrlarini mustaqil bayon etishlari uchun keng imkoniyatlar beriladi. O'qish darsi izoh talab qilmasligi va o'quvchilar uchun sodda shu bilan birga tushunarli. Shu o'rinda olimlarning shunday fikrini keltirib o'taman:

*Yaxshi kitoblarni o'qish – o'tmish zamonlarning
eng dono kishilari bilan hamsuhbat bo'lish demakdir.
Yana shunisi ham borki, bu suhbatda ular bizga
o'zlarining eng yaxshi fikrlarini bayon etadilar*

R. Dekart

Ta'lim soha vakillari haqida so'z borar ekan shu misralar yodimga tushdi:

*Ustoz borki, ustozlardan ziyoda,
Uning xizmatida turgin keladi.
Bilimli, xushxulq xamda kamtarin,
Uni dildan ustoz degin keladi.*

*Ustoz borki, ustozlikdan yiroqda,
O'qimaydi, izlanmaydi, yonmaydi.
Ilm nima, ma'no nima, bilmaydi,
Uning xizmatidan qochgin keladi.*

*Ustoz borki, kunda ko'rsang arziydi,
Undan har kun o'git olsang arziydi,
Bor-budingni unga bersang arziydi,
Uning xizmatida bo'lgin keladi.*

*Ustoz borki, olmoq uning istagi,
Ilm sotib, boy bo'lishlik niyati,
Amaldorga yaqin bo'lar kun bo'yi,
Uning nazaridan qochging keladi.*

*Ustoz borki, ko'ngli pokdir azali,
Shogirdlarga tushgan uning nazari,
Shunday ustoz asl shogirdning keragi.
Ne yumush topshirsa, qilging keladi.*

*Azizlarim, sinov kerakdir ustozga,
Nazar soling ilm-xunaru, do'stu-yoriga,
Bor mehringiz bering yaxshi ustozga,
Yomonning yonidan qochging keladi.*

I Bob.

O'qish kitobi darsliklari va o'qish darslarining hususiystlari, maqsad va vazifalari. O'zbekiston Respublikasining "Talim to'g'risida" gi qonuni hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli, vositalari hamda prinsiplari tanlanishi birinchi darajali ehtiyojga aylandi "Ta'lim to'g'risidagi Qonunning 7 moddasida belgilab berilganidek" Davlat ta'lim standartlari umumiy, o'rta mahsus, kasb-hunar va oliy ta'lim mazmuniga hamda sifatiga qo'yiladigan talablarini belgilaydi.

„Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalari uchun majburiydir“

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan" Davlat ta'lim standartlari to'g'risidagi Nizom" ga binoan umumiy o'rta ta'lim, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida- alohida davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichlari belgilab qo'yildi.

"Ta'lim to'g'risida" gi Qonunda ta'kidlanganidek: "Maktabning birinchi sinfga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi" "Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi" da e'tirof etilganidek, olti yoshga to'lgan har qanday bola aqliy, hamda ruhiy va jismoniy jihatdan maktabda o'qish uchun tayyor bo'lganida, maktabning metodik, moddiy-texnik bazasi bunday bolalarga ta'lim berish uchun yetarli deb hisoblanganda hamda o'qituvchilar pedagogik va psixologig jihatdan olti yoshli bolalarni o'qitishga tayyor bo'lganida, ularni maktabga qabul qilish mumkin.

Buning uchun olti, yetti yoshli bolalar, maktabning moddiy-texnik bazasi hamda o'qtuvchilar pedagogik va psixalogik talablar asosida qattiq diagnostika qilinishi shart".

"O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida" Nizomda ta'kidlanganidek: "Boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash, o'zini-o'zi nazorat qilish uquvi, nutq va xulq-atvor madaniyati, shaxsiy gigiyena va sog'lom turmush tarzi asoslarining egallab olinishi ta'kidlanishga da'vat etilgan".

Shu asosga ko'ra, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning umummadaniy va ahloqiy ko'nikmalari, daslabki savodxonlik malakalari shakillantirishi lozim.

Boshlang'ich talim jarayoni bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakillantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his eta olishga go'zallik va nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish ta'lim standarti orqali amalga oshiriladi. Ta'lim standarti asosida davlat boshlang'ich sinf o'quvchilaridan standartda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishishini talab qiladi va o'z navbatida, bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'limiy xizmatlar va vositalar bilan ta'minlaydi.

Boshlang'ich ta'lim davlat standart o'quv predmetlari bo'yicha emas, balki ta'lim sohalari bo'yicha belgilandi. Ta'lim sohalari bo'yicha standart ko'rsatkichlari 7(6)-11 yoshdagi bolalarning rivojlanish darajasi, ehtiyoj va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ijtimoiy talab taqozo qilgan ta'lim mazmunining miqdoriga asoslanib belgilanadi. Boshlang'ich sinf, boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standartining belgilanishi shu bosqichda ta'lim mazmuni ko'lamini chegaralab, ta'lim sohalarini integratsiyalash imkonini beradi. Davlat ta'lim standartini belgilash boshlang'ich ta'lim mazmunini konseptual asosiga tayangan holda modernizatsiyalash (davr talablari nuqtai nazaridan yangilash)ni ko'zda tutadi.

Davlat ta'lim standarti boshlang'ich ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan ijtimoiy talabga asoslangan holda o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarga qo'yilgan talablarni belgilab beradi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarni baholash me'zonlarini belgilashga imkon yaratadi. Boshlang'ich ta'lim standartining asosini davlat va jamiyatning dolzarb ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ayni shu boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'nikma va malaka hosil qilishga qaratilgan ta'lim sohalarining mujassamlashgan parametrlari tashkil qiladi.

Boshlang'ich ta'lim standarti maskur ta'lim bosqichining ham bir ta'lim sohasi uchun belgilangan standart parametrlari, maskur ta'lim sohasining modernizatsiyalashishi shu mazmunning tarkibiy qisimlari, ta'lim jarayonining vosita va metodlari hamda umum pedagogik, psixologik, texnologik tizimi va darajasini belgilab berishga

hizmat qiladi. Bunda butun e'tibor boshlang'ich ta'lim berishning maqsadi yuzasidan butunlik, uzviylik, tadrijiylik va to'la qonlikni saqlab qolishga qaratiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichiga davlat va jamiyat tomonidan qo'yilgan talabda ta'lim sohalar bo'yicha o'zaro muvofiqlik, mutanosiblik, uyg'unlik to'la ta'mirlangan bo'lmog'i kerak. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim standartini belgilash ta'lim jarayonining tarkibini va huddi shu tarkib komponentlarining mazmunini modernizatsiyalash, boshlang'ich ta'lim jarayonida yangi zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash imkonini beradi. Quyidagi pedagogik omillar ta'lim jarayonida yangi texnologiyalarni qo'llash uchun asos yarata oladi:

-boshlang'ich ta'lim jarayoniga kiritilgan har bir ta'lim sohasi bo'yicha belgilanadigan ta'lim mazmuniga mos tarzda o'quv materialarining tadrijiy tarzda belgilanishini ta'minlash;

-ta'lim jarayonini ta'lim sohalarining maqsadiga bo'ysindirish va ta'lim sohalararo maqsadlar mutanosibligi ta'minlash hamda birlamchi sohasi bo'yicha boshlang'ich sinf o'quvchilarida hosil bo'ladigan bilim ko'nikma va malakalarning aniq darajalarini hamda ta'lim natijasini baholash mezoniga qo'yiladigan talablar boshlang'ich ta'lim standartining asosiy predmetlari bo'yicha ishlab chiqish.

Boshlang'ich ta'lim standarti ta'lim sohalariga qo'yilgan standart ko'rsatkichlarini mujassamlashtiradi. Standartning mezon va parametrlarini ta'lim sohalarida belgilab qo'yilgan ta'lim standartining

ko'rsatkichlari tashkil etadi. Ta'lim sohalari bo'yicha ta'lim natijasining sifati huddi mana shu ko'rsatkichlarga asoslangan holda aniqlanadi. Bu o'rinda belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlar umumlashtiradi hamda aniq o'lchov birliklarida ifodalanadi.

Davrning dolzarb talablari va jamiyat taraqqiyoti bilan barobar rivojlanib boruvchi ta'lim tamoillariga asoslanib, jahon tajribasiga tayangan holda O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona-tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari kiritiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida xorijiy (ingiliz, nemis, fransus, arab kabi) tillarni o'rganish ixtiyoriy bo'lib u maktab kompanentidagi soatlar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

O'zbek maktablari uchun rus-tili, o'qishlar boshqa tillarda (rus, qazoq, turkman, tojik, qirg'iz va boshqa) olib boriladigan maktablarda davlat tili (o'zbek tili) ni o'qitish konsepsiyasidan hamda ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda o'zbek tili davlat ta'lim standartida o'z ifodasini topadi.

Shuning uchun ham bu sohalarda olib boriladigan ta'lim mazmuni mazkur standart talablariga tayangan holda belgilanishi lozim.

Ona tili ta'lim misolida ko'radigan bo'lsak, bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'z g'alar fikrini anglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantishirga hizmat qiladi. Bu o'zingda ona tili ta'limiga

o`quv fani emas balki butun ta`lim tizimini uyushtiruvchi ta`lim jarayoni sifatida qaraladi.

Ona tili ta`lim standarti ko`rsatkichlari bolani fikrlay olishi, ifodalangan fikrni anglash va o`z fikrini savodli, man izchinlikka rioya qilgan holda bayon eta olishiga o`rgatish nuqtai nazaridan belgilanadi.

Boshlang`ich ta`lim bosqichida o`quvchining ona-tili ta`limi sohasi bo`yicha tayyorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablari quyidagi uch parametrli standart mezon orqali aks ettiriladi: o`qish texnikasi, o`zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamma fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

O`qish texnikasi bolaning savodxonlik yozma nutq belgilarini, talaffuzda ifodalash ko`nikmasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Bu paramert orqali o`quvchining notanish bo`lgan matnni ifodali o`qiy olish ko`nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko`rsatkich sifatida ifodali o`qish tezligi, yani berilgan matndan minutiga nechta so`z o`qiy olish ko`rsatkichi belgilangan. Sinfdan sifnga o`tish miqdoriy ko`rsatkichdagi belgilar soni oshishi bilan birga berilgan matnni o`qishdagi talabalar ham bolaning yoshiga monand ravishda ortib boradi.

Matn mazmunini anglash, o`zgalar nutqini eshitish va fikrini anglash malakasini o`quvchining og`zaki bayon qilayotgan o`zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiltirilgan. Bu parametrning ko`rsatkichlari o`quvchi o`n minutda qancha sahifa matinni o`qishi, o`zgalar fikrini va matn

mazmunini anglash hamda uning ogʻzaki qayta bayon qilish darajasini aniqlaydi.

Fikrni yozma shakilda bayon etish malakasi murakkab jarayon boʻlib, ona tili taʼlimning maqsadi shu paramertda mujassamlashadi va oʻquvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu paramert boʻyicha taʼlim sifatining natijasini baholashda oʻqituvchi tomonidan quyidagi koʻniklamalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganligi;
- mazmunning murakkablik darajasi (sodda, murakkab aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiqligi va mukammalligi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalanish darajasi;
- imloviy (yozma) savodxonlik.

Mazkur standart mezonlarining oʻzaro uzviy bogʻliqligi (integratsiyasi) ni nazarda tutib, oʻqish ona tili taʼlimida belgilangan vazifalarning amalgam oshirishida asosiy omil hissoblanadi.

Boshlangʻich maktabda matematika taʼlimi oʻquvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakillantirish va rivojlantirishga, oʻz fikrini mustaqil bayon qila olish, egallagan bilimni ijtimoiy faoliyatida qoʻllash hamda taʼlimning ikkinchi bosqichida oʻqishni davom ettirish uchun matematik tayyorgalikni taʼminlashga hizmat qiladi.

Matematika boʻyicha standart koʻrsatkichlari bolada natural sonlar va noʻl toʻgʻrisida tasavvurini shakillantirish, puxta hisoblash koʻnikmalarini hosil qilish, amaliy masalalarini yechishda natural sonlar va arifmetik amallarini qoʻllay olishiga oʻrgatish, eng sodda geometrik

shakillar, ularni tekislikda tasvirlash hususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish hamda og'zaki hisoblash va matematik munosabat belgilaridan foydalana olish malakani hosil qilish, nuqtaiy nazaridan izohlanadi.

Bolani tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirishda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang'ich tasavvur hosil qilish ilmiy dunyoqarashni kurtaklarini shakillantirish, tabiatga muhabbat uyg'otish va unda o'qilona foydalanishni o'rgatish tabiat ta'limi sohasi orqali amalga oshiriladi.

Tabiat bo'yicha standart ko'rsatkichlari bolaning tabiat va undagi hodisalar haqidagi tasavvuriga ega bo'lish, tavsiflab berish hamda amalda qo'llay olishiga o'rgatish nuqtaiy nazaridan belgilanadi.

Inson va jamiyat ta'limi bola shaxsining jismoniy va ma'naviy kamolotini ta'minlashga hizmat qiladigan integral ta'lim sohasidir.

Bunda ta'lim –tarbiya berish jarayonida bolaning jismonan chiniqishi ta'minlashga hizmat qiladigan eng muhim ko'nikmalar axloq –odob me'yorlari, milliy urf –odatlar, kiyinish me'yori, nafosat va go'zallikni his eta olish, olam, moddiy borliq, insoniyat dunyosi va inson faoliyatini ranglar yordamida tasavvur eta olish, milliy ruh, inson his-tuyg'ularini turli musiqiy sadolar yordamida anglash, shuningdek, oila va uning iqtisodiy asoslari haqidagi dastlabki ko'nikmalar shakillantiriladi va rivojlantiriladi.

Inson va jamiyat talimi sohasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, bu ta'lim sohasi bo'yicha o'quvchining tayyorgarlik

darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi to'rt yo'nalishda belgilanadi; a) insonning salomatligi va jismoniy kamoloti; b) musiqiy ohanglar yordamida inson ruhiyatini hamda tabiatini badiiy ifodalash; v) atrof, borliqdagi ayrim holatlarni ranglar vositasida tasvirlash; d) insonning moddiy va ma'naviy ehtiyoji hamda jamiyat talablarini qondirishga oid me'yorlar.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun belgilanga standart ko'satkichlari ikki guruhga bo'linadi: 1) ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'satkichlar; 2) o'quvchining bilim doirasini belgilovchi ko'satkichlar.

I.1. Davlat ta'lim standarti talablari va boshlang'ch sinf o'qish darslari. "Davlat ta'lim standarti" har tamonlama izchil asoslangan va har tamonlama zamon talablariga ham javob beradigan holda tuziladi. Uning har tamonlama asoslanishi qonunda ham asoslab o'tilga. Har bir sinflarga tuzilgan "Davlat ta'lim standarti" o'quvchilaning yoshiga mos va hos bo'lishi shart. Sababi o'quvchilarga og'irlik, toliqish hissi bo'lishiga yo'l qo'ymaslikdir. Shunday bir davrda o'qish kitoblarimizga qo'yilgan "Davlat ta'lim standarti" qay ko'rinishda yoki hozir o'qish kitoblarimiz "Davlat ta'lim standartlariga javob beradimi? Aniqrog'i o'qish kitoblarimiz o'qishlimi? deya savol tug'iladi. Keyingi vaqtlarda ta'lim tizimidagi islahotlar hech kimni befarq qoldirmayapti. Oddiy ishchidan to arbobigacha, paxtakor dehqondan to shifokorgacha, uch-to'rt kishining boshi bir joyga biriksa, gap aylanib ta'lim –tarbiya

javhasidagi o'zgarishlarga, yangilanishlarga borib taqaladi. Kelajak avlodlar taqdiriga bu kabi mas'uliyat va kuyunchaklik bilan yondashilishi hammamiz uchun, eng avvalo, ta'lim sohasida ishlaydigan kishilar uchun quvonarli holdir. Shu o'rinda bir o'qituvchi shunday deydi: "Men boshlang'ich ta'limga aloqador o'qituvchi sifatida aytishim mumkinki, bu borada har qanday yutuq ko'p jihatdan davlat ta'lim standartlari, soha dasturlari kabi me'yoriy hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarning qay darajada amalgam oshirilishi shuningdek, darsliklar va boshqa o'quv adabiyotlari mazmunining mazkur hujjatlarda ko'rsatilgan talablarga nechog'li javob berish bermasligi kabi omillar bilan chambarchas bog'liq" 1-4-sinflarning ona tili dasturi ko'zdan kechirilsa, o'quvchilarni o'qishga o'rgatishdan tortib, badiiy asarlarni tahlil qilishgacha bo'lgan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq jarayonlar hususida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, hayotiy tajribalariga mos talablar qo'yilganni ko'rish mumkin. "Bolalarning - deyiladi mazkur dasturda, - o'qigan asarlarining adabiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etish, ularni tasvirlangan voqea-hodisalar mag'zini chaqish, muayyan xulosalar chiqarishga tayyorlash bolalarda yuksak ahloqiy sifatlarni va nafosat tuyg'usini tarbiyalash zarur" O'quvchilarni badiiy asarlarning ahloqiy-estetik xususiyatlarini chuqur idrok etishga o'rgatish, ularda "yuksak ahloqiy sifatlarni va nafosat tuyg'usini tarbiyalash, shubhasiz badiiy asarlar mutolaasi bilan bog'liq.

4. "Ta'lim taraqqiyoti", 7-maxsus son. "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1999, 75-bet.

Ammo boshlang'ich sinflarning "O'qish kitob" lari,bizning nazarimizda, o'quvchilarni ko'proq yil fasllari ("Zurat bahor," "oltin kuz", "kumish qish", "yoz-o'tadi soz") vatan tabiati, mehnat hamda turli ijtimoiy-siyosiy sanalar, hatto ilmiy muommolar bilantanishtirishga

qaratiganidek taasurol qoldiradi. Masalan: 3-sinf "O'qish kitobi"darsligida berilgan "Vatan gerbi", "Toshkent", "Bugun bolasiz, ertaga askar bo'lasiz", "Bayroq nima?", "Istiqlolga sharaf-shon" kabi to'la matnlar mavzu jihatdan har qancha muhim bo'lmasin o'chuvchilarni nafosatga oshno qila berolmaydi, adabiy-estetik tafakkurni shakllantirishga hizmat qilmaydi. Chunki ular murg'ak qalblar his-tuyg'usiga zarracha bo'lsa-da ta'sir ko'rsatmaydi. Insonning o'z hissiyotiga ta'sir qilmagan narsa-hodisani qabul qilish mushkulligi nazarda tutulsa, biz ilgari surayotgan fikr-mulohazalar yanada oydinlashadi.Gap "Milliy istiqlol g'oyasi" yoki boshqa biror siyosiy fan darsligi emas, boshlang'ich sinflarning "O'qish kitob"lari ustida ketyapti. Binobarin,o'qish darsligining asosiy maqsadi barcha asarlar mutolaasi va tahlili orqali o'quchilarning badiiy didi va adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish,nima yaxshi-yu nima yomonligi to'g'risida yoritib berishga qaratilgan.

Ta'lim tizimini g'oyaviy tarbiyalashni tasavvur qilib bo'lmasligini biz ham to'g'ri tushunamiz. Ammo endigina savodi chiqqan,o'y-hayoli tarqoq bolaga quruq g'oya bilan to'yindirish, maqolalarni tavsiya qilish orqali dasturda ko'zda tutilgan talablarni amalga oshirib bo'larmikan. Masalan maskur darslikdan o'rin olgan

E.Malikovning "Toshkent" nomli ommobob maqolasida "Toshkent" soʻzining kelib chiqishi, shaharning qadimgi holati, aholising tirikchigi, chor hukumatining mahalliy xalqqa munosabati haqida quruq va gʻoyatta rasmiy soʻz yuritiladi. Maqolaning ikkinchi qismida qalamga olingan voqealar tavsiloti yana bir necha yoʻnalishida boʻlib, oʻta tarqoq. Ularning oʻrniga Toshkentning oʻtmishi undagi bolalar hayoti bilan bogʻliq voqealar hikoya qilingan tarijiiy-badiiy asarlar berilsa, maqsadga muvofiq boʻlar edi. "Tengdoshlar" boʻlimida keltirilgan "Koinotga sayohat", "Kompiyuter olami", "Sayyoralar " nomli maqolalar ilmiy ensiklopedik harakterga ega boʻlib, boʻlim sarlavhasiga mos emas. Koinot va sayyoralar, kompiyuterlar haqida maʼlumotlar muhimligiga hech kim shak keltirmoqchi emas. Gap uni oʻquvchilarning yoshiga, hayotiy tajribasiga mos tarzda yetkazishda. Ilmiy-ommobob maʼlumotlar oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda shakshubhasiz, muhim oʻrin tutadi. Ammo "Oʻqish kitob"lari oldiga qoʻyiladigan vazifalar bunday boʻlmasligi kerak, degan fikrdamiz. Maskur darslikning "Oʻtmishni oʻrganish-burchimiz" boʻlimidagi "Oʻgʻlon", "Kitob", "Oltimish gaz arzon" matnlari ham boʻlim sarlovhasiga mos kelmaydi. Bizningcha, bu boʻlimga ajdodlarimizning vatan daxilsizligi yoʻlidagi kurashlari Urf-odatlar bilan bogʻliq tarixiy voqealar tasvirlangan asarlar kiritilsa, aynan muddao boʻlar edi. Darslikdagi "Bebaho boylik" (N.Nazir), "Donolarning donosi" (P.Moʻmin), "Elim deb yurtim deb yashagan inson" (B.Ahmedov)

5. Yoʻldashova N.Qarshi DU „Oʻqish kitoblari oʻqishlimi“ Boshlangʻch taʼlim 2005 3-son 14-bet. asarlari ham, mashhur yozuvchilar qalamiga mansub boʻlishiga qaramasdan Amir-Temur va Alisher Navoiy kabi buyuk

ajdodlarimizning hayot yo`li shunchaki bayon etilgani tufayli o`quvchida zavq uyg`otmaydi. Masalan: badiiylikdan yiroq asarlar berilar ekan, o`quvchilarning hissiy idrok mutola jarayonida zavq, uyg`otmagan qilishi haqida gap ham bo`lishi mumkin emas. Bu hildagi kamchiliklar 1-2-3-4-sinf "O`qish kitobi" darsliklariga ham tegishli bo`lib, undan kerakli xulosa chiqarish mualliflarga havola, deya o`z fikrlarini ketirganlar. Bundan tashqari birinchi sinfda o`qish darslari haqida gapi- radigan bo`lsak, keyingi yillarda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va Davlat ta`lim standartlari talablarini bajarish asnosida boshlang`ich ta`limda katta o`zgarishlar yuz bermoqda, Yani darsliklar ma`lum darajada yangilanyapti, takamillashtirilyapti. Bu albatda, o`qish-o`qitish ishlarini yaxshi yo`lga qo`yilishiga ijobiy ta`sir etyapti. Darslik materiyallarini puhta va samarali o`zashtirishda esa ular haqida yozilgan qo`llanmalarning o`rni salmoqlidir. Shu boiz yaqinda chop etilgan "Birinchi sinfda o`qish darslari" kitobi boshlang`ich ta`lim-tarbiyada ayniqsa birinchi sinf o`qish darslarini zamon talablari darajasida tashkil boshlang`ich ta`lim uchun yana bir ulkan yangilik deb baholash va qabul qilish mumkin.

"O`qtuvchi kitobi " rukni andozasida nashr etilgan ushbu metodik qo`llanma boshlang`ich sinf o`quvchilari, pedagogika institutlari va pedagogika universitetlarining boshlang`ich ta`lim metodikasi fakultetlari va bo`limlari talabalar uchun pedagogika kollejlarning mazkur mutahasizlikni bitiruvchi bo`limi taabalar yosh o`qituvchilar uchun juda zarur qo`llanma bo`la olishi bilan qimmatli. Qo`llanma 1-sinf o`qish darslariga qo`yiladigan Davlat ta`lim standarti

talablarini qisqa sharhlash bilan boshlanadi. So`ng “O`qish kitobining tuzilishi” sarlovhasi ostida “Birinchi sinf o`qish kitobi” darsligining bo`limlari, bo`limlarning nomlanishi, kiritilgan mavzular, ularni o`rganish-o`rgatishdan kelib chiqadigan ta`lim tarbiyaviy maqsadlar qisqa-qisqa izohlab berilgan.

Darslik tuzilishining ayrim maqsadga muvofiq jihatlari keltirilgan hamda darslik bilan ishlashni bazi bir tomonlarini yoritib berishga harakat qilingan. Qo`llanmada 1-sinfda o`qish darslarining vazifasi va “O`qituvchilarning o`qish malakasini takomillashtirish” mavzusi orqali matnlarni o`rgatishga tayorgarlik ko`rish ishlarining turlari ko`rsatib o`tilgan. Bunda o`qituvchi hikoyasi, sayohat, bilim namoish etish, lug`at ishi o`tkazish bo`yicha o`qituvchi qilishi lozim bo`lgan ishlarni o`z imkoniyatidan kelib chiqib amalda qo`llashi yuzasidan fikrlar, tavsiyalar beriladi. Chunki badiiy asarni o`qishga tayyorgarlik ishlarida qaysi birini qo`llashni o`qituvchi belgilaydi. Binobarin, qaysi bo`lim yoki qaysi mavzuni o`tishda sayohat yoki o`qituvchi hikoyasi, film namoyish etish yoki lug`at ishining qaysi birini qo`llash o`qituvchining mahoratiga bog`liq ekanligi ta`kidlab o`tiladi. Bu usullarning barchasidan ko`ra o`qituvchi hikayasining eng samarali usul ekanligi aytiladi. Matnni ifodali o`qish sifatini egallash shartlari, o`qishga o`rgatishning ma`naviy-ma`rifiy qirralari haqida fikrlar bildirilgan. Badiiy asardagi voqia-hodisalarni o`ziga hos qirralari bilan jonli idrok, his etishda asar tilining o`rni, ahamiyati, uning o`quvchi nutqni boyitishi, o`stirishdagi ahamiyatidagi ta`kidlab o`tiladi. O`qish darslarida asar tahlili bilan bog`liq har bir ish o`quvchi shaxsini shakillantirishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Qo'llanmada juda o'rinli keltirilganligini alohida etirof etishni zarur deb bilamiz. Ona tili va o'qish darslari samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullardan hisoblangan va o'quvchilarning faolligini har tomonlama oshiradigan mustaqil ish, izlanishli va muammoli o'qitish, analiz, sintes, induksiya, deoluxsiya metodlari, ularni dars jarayonida qo'llash sohalari bo'yicha fikrlar keltirilgan izohli o'qish, ijodiy o'qish, reproduktiv metodlar, ularning hususiyatlari, darslarda qo'llashning bazi qirrlari izohlab berilgan.

Ushbu metodik asarida o'qish darslarini pedagogik texnologiya talablari asosida loyhalashtirish bo'yicha ham qimmatli fikrlarni munosabat, yangilik va ijodkorlik bilan yo'g'rilgan tavsiyalarni ko'plab uchratish mumkin. Kitobda bo'shlang'ich sinf, shu jumladan 1-sinf o'qish darslarida qo'llanadigan pedagogik texnologiyalarning muhim belgilari va hususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Qo'llanmada didaktik jarayon komponentlaridan hisoblangan mativlar, o'quvchining o'quv-bilim jarayoni va boshqarishning o'ziga hos hususiyatlarining talqinlari ham berilgan. Darsni tashkil etishning metod va vositalaridan bo'lgan motiv hosil qilish (darsga bo'lgan o'ta qiziqishni vujudga keltirish), matnni o'qishga tayyorgarlik, matnni o'qish va mazmunini so'zlash, lo'g'at usulida ishlash, matnni o'qitish, topshiriq bilan o'qish matn mazmuni ustida ishlash, bilimni nazorat qilish, ularning turlari, o'tkazish yo'llari, kafolatlangan bilimlar berishdagi salmog'i va salohiyati, o'rni va ahamiyati yuzasidan aniq tavsiya va takliflar berilgan. Zarur izohlar, ko'rgazmalar ko'rsatma va yo'l- yo'riqlar, maslahatlar tashkil etilgan. Ulardan har bir pedagogning

o'z imkoniyati darajasida foydalanish, qo'llanma materiallariga ham suyanishi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan. Kitobda 1- sinfda o'ganiladigan 68 soat o'qish darsining ishlanmalari berilgan. Mualliflar ta'kidlaganidek, bu ishlanmalar «pedagogik texnologiya asosida tashkil qilingan darslardan namunalar»ki, biz ham e'tirof etamiz. Undagi 1,10,14,23-dars ishlanmalarini har tomonlama puxta va pishshiq ishlangan deyish mumkin. Umuman olganda, qo'llanmadagi barcha dars ishlanmalaridan berilgan namunalarini yuqori saviyada tayyorlangan dars konspektlari qatoriga kiritsa bo'ladi. Ayniqsa, har bir bo'lim yuzasidan takrorlash darslari uchun berilgan dars ishlanmalari noan'anaviyligi, pedagogik texnologiya asosida yaratilganligi bilan ajralib turadi.

O'qish darslarida foydalanish, darsning qiziqarliligini oshirish, darslarni sifat va samaradorligini ta'minlash uchun testlar, rebuslardan namunalar berilgan. Darsda qo'llash uchun qo'shimcha materiallar, ya'ni topishmoqlar va ta'limiy o'yinlardan ham namunalar keltirilgan. Umuman olganda, ushbu qo'llanma yuqori saviyadagi talablar asosida yozilgan. Uning 1-sinf o'qish darslarini zamon talablari asosida tashkil etish va uni o'tkazishga samoqli yordam bera olishi shak-shubhasizdir. Lekin, qo'llanma ba'zi bir hato va kamchiliklardan ham holi emas deb o'ylaymiz. Masalan: 5 sinfda mo'ljalangan E.Melikovning «Ulkan hovuz» matni hajmi jihatdan katta, unda 5-6 bo'g'inli so'zlar ko'p.

«Biz buyuklar avlodi» bo`limining 11 dars ishlanmasida, matnни o`qituvchi o`qib beradi. Matn mazmuni tushuntiriladi, «Kuch-adolatda» degan hikmatning ma`nosi tushuntiriladi, deya chegaralangan. Bo`limni yanada kengroq ochib berish mumkin edi. «Shox va shoir» mavzusidagi 21-dars ishlanmasida ham shunday kamchiliklar uchraydi. Bulardan tashqari 29, 30, 50, 52-dars ishlanmalari bir oz sayozroq tuzilgan. Ularni ham mukammalroq qilib qayta ishlansa, yanada yaxshi bo`lardi.

Binobarin, bu mavzular uchun ham kengroq, batafsilroq noan`anaviy dars ayrimlarida lug`at ishini o`tazish yo`llari ko`rsatilmagan, ba`zilarida esa lug`at ishini o`tkazish eslatilmay ketilgan. Shuningdek, ushbu qo`llanmadagi konspektни yaratish imkoniyatlari mavjud edi. Ishlanmalari 1-sinf «O`qish kitobi»ning tuzilishi haqidagi ma`lumotlarni ortiqcha deb hisoblaymiz.

Dars ishlanmalari ichidagi va qo`llanma ohirida ayrim mavzular uchun berilgan test javoblarining 2 tadan berilishi unchalik maqsadga muvofiq emas. Biznincha ularning ba`zilariga 3, hatto 4 tadan javoblarni variantlarini keltirish (ayniqsa, 4-chorakdagi darslarga) to`g`ri bo`lar edi. Yana qo`llanmaning 119-124- (ular 67 ta)-sahifalarida berilgan testlarning bazilari 1- sinf o`quvchilari uchun og`ir va mavhumroq bo`lib qolganga o`xshaydi. Masalan: 39,42,47-testlar 1-sinf o`quvchisi uchun qiyin, 3,5,10,12,21,26,32,33-testlar mavhumroqdir. Biroq bu nuqsonlar qo`llanmaning ilmiy va metodik qimmatini aslo pasaytira olmaydi. Davlat ta`lim standartining shu yo`sinda olib borilishi va targ`ib qilinishi izchil kuchaytirilmoqda.

I.2.qish darslari va Davlat ta'lim standartida uzviylik.

Yurtimizda yoshlarning bilim olishlari uchun keng ko'lamli ishlarni olib borilishi ularga berilayotgan imkoniyatlarning kengligi ulardagi ishtiyoq va iste'dodlarning qirralarini yoritishga birlamchi tayanch desam yangishmayman. Iste'dod egalarinig yurtimizda ortib borayotgani nur ustiga a'lo nur bo'lmoqda shunday imkoniyatlar asri bizning yoshlar boshida misoli Xumo qushidek porlamoqda desam yanglishmaymiz.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.Toshkent 2010.42-67- betlar.

Boshlang'ich ta'limda o'qish fanining maqsad va vazifalari.

1.Bola o'qish texnikasini egallashi uchun, avvalo uning savodxonlik darajasini oshirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish to'g'ri talaffuz etishni o'g'ratish lozim. Daslab tanishish, keyin notanish matnni ifodali o'qitilib, o'quvchidagi ko'nikma, malaka aniqlanadi. Bunda miqdoriy –o'qish tezligi, ravon o'qiy olish, bir daqiqada nechta so'z o'qiy olishi belgilanadi.

Bola matn mazmunini to'liq uqib olishi, shuningdek, o'zgalar nutqini eshitib, tushunib olishi maqsad qilinadi. O'quvchining o'n daqiqada 4-5 sahifali matnni o'qib, qayta so'zlab bera olishi, o'zgalar fikrini aniqlab, uni og'zaki bayon qila olish darajasi aniqlanadi.

Mazkur standart mezonlarining o'zaro uzviy bog'liqligi (Integratsiyasi), o'qish, ona tili ta'limida belgilangan vazifalarining amalaga oshishida asosiy omil hisoblanadi. _____

7. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent 2010.42-67- betlar.

2. ta'lim mazmunini belgilovchi ko'rsatkichlar.

Boshlang'ich ta'limda adabiyot ta'limi tarkibidagi o'qish mazmunining negizi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-mavzu doirasi: Vatan, o'tmishi hozirgi taraqqiyoti, kelajagi buyuk allomalar, tarixiy shaxslar, xalq qaahramonlari, tengdoshlari hayoti, ilm-fan, ma'rifat, jamiyki hususiyatlari: hikoya, ertak, maqol, doston, tez Aytishlar madaniyat mavsumiy o'zgarishlar; she'r, latifa, lof;

- kitob bilan ishlash;

-so'zlarini to'g'ri talaffuz qilish; bo'g'inlar o'qishdan ongli, sidirg'asiga (tekis) tez, to'g'ri, ravon va ifodali o'qishga erishish.

-o'zbek va xorijiy bolalar yozuvchilari asarlarini o'qish;

-yozuvchilarining ismi – sharifi asarlarining nomlari haqida to'laroq tushuncha hosil qilish;

-badiiy asarlarini sharhli, asarlarni ifodali o'qish;

-asar mazmuni va voqealari o'rtasidagi bog'lanishni, qahramonlarining fel atvorini aniqlash, qiyosiy tavsiflash;

-o'qigan asarlari yuzasidan o'z fikr –mulohazalarini og'zaki va yozma tarzda izchil ifodalash;

-So'z boyligini oshira borish va nutqida faol qo'llash;

-o'qigan asarlari yuzasidan mustaqil jera tuzish;

-nasriy asar mazmunini to'liq qisqartirib shahsini o'zgartirib hikoyalash;

-badiiy asarlarini estetik tahlil qilish;

- o'qigan asarlari yuzasidan savol-topshiriqlar tuzish;

-badiiy asarlarni o'zaro qiyoslab, tegishli xulosalar chiqarish.

3. O`quvchining o`zlashtirishi zarur bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar.

1-sinf.

O`quv yili yakunida 1-sinf o`quvchisining tayyorgalkiil darajasiga qo`yiladigan talablar;

Bilim:

-hikoya,she`r,ertak,topishmoq,maqol,tez aytish janrlari;

-badiiy asar mazmunini bilish;

-asardagi eng qiziqarli lavhalarini bilish;

Ko`nikma:

-matndagi so`zlarning ma`nolarini izohlay olish;

-Matn mazmunini ko`rgazmalar vositasida to`liq qayta hikoyalay bilish:

-Asar qahramonlarining (salbiy va ijobiy) hatti-harakatlarini aniqlash va baholay olish:

-Masal:

-so`z tarkibida tovushlarni to`g`ri talaffuz qilish;

-so`zlarni bo`g`inlab, so`ng sidirg`a (tekis) o`qish;

-Hikoya, she`r,ertak, topishmoq, maqol,rivoyat, tez aytish janrlaridagi asarlarni ifodali o`qish;

-bir daqiqada 25-30 so`zni o`qish;

-o`qigan asari yuzasidan o`z fikr-mulohazalarini bildirish;

-o`qigan asar asosida rasm chizish;

-o`quv yili yakunida 5ta she`rni yoddan aytib berish

II-sinf

O`quv yili yakunida 2-sinf o`quvchisining tayorgarlik darajasiga qo`yiladigan talablar;

-Bilim:

- hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish,xalq qo`shiqlarini farqlay olish;

-She`r va nasriy (hikoyaviy) asarlar.

Ko`nikma:

-matndagi so`zlarining ma`nolarini izohlay olish.

-badiiy asarga o`qituvchi yordamida reja tuza olish;

-bolalar yozuvchilarning turli janirdagi asarlarini mustaqil o`qiy olish;

-maktab kutubxonasidagi kitoblardan foyalana bilish;

-badiiy asar mazmuni asosida o`z fikr va mulohazalarini bayon qila olish;

Malaka;

-hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat, masal, xalq qo`shiqlarini to`g`ri, ongli va ifodali o`qish;

-tuzilishi murakkab ko`p bo`g`inli bo`g`inlab,so`ng sidirg`a (tekis) ravon o`qish;

-tuzilish sodda so`zlarni yaxlit o`qish;

-bir daqiqada 40-50 so`zni o`qish;

-asarni janr va mavzusiga ko`ra ajratish;

-O`qituvchi rahbarligida matnni qisimlarga bo`lish va har bir qisimga sarlavha o`ylab topish;

- reja asosida asarni qayta hikoyalash;
- matn mazmunini ko`rgazmalar vositasida hikoyalash;
- asar yuzasidan o`z fikr-mulohazalarini mustaqil ravishda bayon etish;
- asar mazmuniga doir rasmlar chizish va nomlash;
- o`qigan asar bahs,munozara qilish;
- o`quv yili yakunida 10ta she`rni yoddan aytish.

III-sinf

O`quv yili yakunida 3-sinf o`quvchisining tayyorgarlik darajasiga ko`yiladigan talablar;

Bilim;

- hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, latifa, rivoyat, hikoyat, masal, ibora, afsonani janriga ko`ra farqlay olish,
- badiiy asar mazmuniga munosabat bildirish;

Ko`nikma:

- matndagi so`zlarning ma`nolarini izohlay olish;
- maktab kutubxonasidagi kitobardan unumli foydalana bilish;
- asardagi qahramonlar haqida kichik tuza olish;
- bolalar yozuvchilarining turli janirdagi asarlarini mstaqil ravishda tanlab o`qiy olish;

Malaka:

- ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, xalq qo`shiqlari, qissalaridan, parchalarini, tog`ri, ongli, ifodali, sidirg`a o`qish;
- o`qilgan badiiy asarga reja tuzish;
- asar mazmunini qayta hikolayashda o`hshatis;

- asar mazmunini qisqartirib, qayta hikoyalash;
- o`qigan asar yuzasidan o`z fikr mulohazalarini erkin bildirish;
- bir daqiqida 60-70 ta so`z o`qish.;

O`quv yili yakunida 15ta she`rni yoddan ifodali aytib berish;
mustaqil o`qish uchun bir mavzu darsida bir nechta asar tanlay bilib,
ifodali o`qish;

O`qigan asar asosida kichik sahnalar qo`yish.

IV-sinf

O`quv yil yakunida 4-sinf o`quvchisining tayyorgarlik darajasiga
qo`yiladigan talablar;

Bilim:

-hikoya, she`r, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, hikoyat
masal, latifa, lov, ibora, afsona, xalq qo`shiqlari haqida tushuncha;

-badiiy asar mazmunining mustaqil tahlili;

Ko`nikma:

-matndagi so`z , ibora, gaplarining ma`nolarini izohlay olish;

-bolalar yozuchilarining turli janrdagi asarini tanlab,mustaqil
o`qib,ijodiy so`zlay bilish;

-maktab kutubxonasidagi kitoblardan unumli foydalana bilish
asardagi qaramolar haqida kichik hikoya tuza olish;

-o`qilgan asar asosida ijodiy ravishda rasmlar bilish;

-habar, tabiat tasviri; kuzatgan voqiya va hodisalar ishtiroketgan
kichik hajmdagi insho yoza olish;

Malaka:

-hikoya, sher, ertak, topishmoq, maqol, tez aytish, rivoyat, doston, hikoyat, masal, latifa, lov, ibora, afsona, xalq qo'shiqlari, doston va qissalaridan parchalarini to'g'ri, ongli ifodali, sidiq'a o'qish.

-badiiy asarga mustaqil reja tuzish;

-bir daqiqada 80-90 so'zni o'qish;

-matn mazmunini reja asosida to'liq qisqartirib, ijobiy qayta hikoyalash;

-asar qahramonlarining xatti-harakatini baholash, ularga shaxsiy munosabat bildirish;

-musataqil o'qish uchun bir mavzu doirasida bir nechta asar tanlash va ifodali o'qish, so'zlab berish;

-asar asosida baxs-munozara, mushoira qilish;

-o'qilgan asar asosida kichik sahna ko'rinishlarida faol qatnashish;

-tuman, shahar kutubxonalariga sayr qilish va a'zo bo'lish;

-kitob haftaliklarida faol qatnashish;

-O'quv yili yakunida 20 ta she'rni yoddan aytib berish;

Davlat ta'lim standarti shunday mazmun va mohiyatini o'z ichiga olgan holda targ'ibot ishlari olib boriladi.

«Barkamol avlod yili» Davlat dasturi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta'lim sog'ligini saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikatsiyalar kopleksining 2010 yili 17 martidagi qo'shma yig'ilish paytida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida oliy va o'rta mahsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining

asosan, umum ta'lim fanlarining barcha bo'yicha umumta'lim maktablari oiliy ta'lim muassasalarining yuqori pedagog mahorat va tajribaga ega amaliyotchi o'qituvchilari yetakchi olim, metodist va mutahassislarini jalb etgan holda 31ta ishchi guruh tuzildi.

Mazkur ishchi guruhlar tomonidan umumiy o'rta, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limi Davlat ta'lim standartlarining sharhlari, o'quv dasturlari va darsliklari uzviylik, uzviysizlik hamda o'quvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mosligi jihatidan haxlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar tayyorlandi.

Tahlillar asosida o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va psixofiziologik xususiyatlariga asoslanmasdan umum ta'lim fanlari o'quv dasturiga kiritilgan yoki 12 yillik majburiy ta'limga o'tish davriga quyi bosqichlarga o'tkazilgan, sinflar ta'lim bosqichlari (umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi) mazmunida takrorlangan, izchilligi ta'liminlanmagan jami 813 soat hajimdagi mavzular aniqlanib optimallashtirildi.

Shundan, 247 soat hajmdagi mavzular umumiy o'rta ta'lim o'quv dasturlarida chiqarilib, o'rta mahsus kasb-hunar ta'limiga, 327 soat hajmdagi mavzular esa sinflardan-sinfga o'tkazildi. 239 soat hajmdagi mavzular sinflarda takrorlanganligi uchun qisqartirilib, maqbullashtirildi.

Umumiy o'rta ta'lim davlat standartining shakillari va umum ta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb hunar kollejlari o'qitiladigan 18 ta umum ta'lim fanlari bo'yicha o'quv dasturlari qayta ishlanib Respublika ta'lim markazi huzuridagi fanlar bo'yicha ilmiy –

metodik kengashlar hamda oliy va o`rta mahsus, kasb-hunar kollejlarida o`qitiladigan, yo`nalishlari bo`yicha o`quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muofiqlashtiruvchi kengashning fan komissiyalarida muhokama etildi va tasdiqlandi. Bundan tashqari barcha umum ta`lim fanlari bo`yicha o`qituvchilar uchun taqvim-mavzu rejalarining namunalari ishlab chiqildi hamda optimallashtirilgan o`quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik tavsiyalar tayyorlandi. Davlat ta`lim standarti izchil ravishda yurtimizda shunday tarzda takomillashdi. O`qish darslarida Davlat ta`lim standartining uyg`unlashuvi nur ustiga a`lo nur bo`ldi .o`qish darslarining turlari va ularning tuzilishi keng ko`lamda o`rganildi.

O`qish darslari savod o`rgatish davri tugaganidan so`ng boshlanadi va u ta`limning keyingi yillarda davom ettiriladi. Shu nuqtaiy-nazardan qaraganda, o`qish darsalari turlari va ularning tuzilishi yuzasidan quyidagicha ish turlaridan foydalaning tavsiya etiladi:

-O`quvchilar fikrini va nutqini o`stirishda rivojlantiruvchi ta`lim usullaridan foydalaning;

-o`qish malakalarini takomillashtirish, to`gri, ongli, ifodali o`qish;

-badiiy asar g`oyasini tushunish qobilayatini o`stirish;

-turli janrlarga hos bo`lgan badiiy asarlarni o`qish va ular ustida ishlash orqali voqeylik haqidagi tasavvur va tushunchalarni kengaytirish;

-nutq tovushlari talaffuzidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish;

-soʻzni butunligicha oʻqish malakalarini shakllantirish va toʻla egallash;

-oʻqish tezligini orttirish;

-mustaqil oʻqiy olish;

-matndagi asosiy fikrni anglash;

-voqea-hodisalarini soʻz bilan tasvirlashga oʻrgatish ;

-nutqdagi soʻzlaradan oʻrinli foydalanishga eʼtibor berish;

-matn mazmunini mulohaza qila olish;

-asardagi badiiy-tasviriy hususiyatlar ustida ishlash;

-matnning maʼnosiga tushunib, qayta hikoyalash;

-matnni qismlarga boʻlish va reja tuzish;

-oʻquvchilarning adabiy talaffuz meʼyorlariga rioya qilishlariga erishish;

-darsning 20-25 minutini oʻquvchilarning ifodali oʻqishiga ajratish;

-lugʻat boyligini va nutq oʻstirish masalalariga alohida eʼtibor berish;

-har-bir darsning muhim vazifasini belgilab olish;

-darsda oʻquvchilar faoliyatini uyushtirish va darsning didaktik maqsadiga asoslanib;

-darsni tashkil etish yoʻnalishiga koʻra turlarini belgilash maʼruza va suhbat koʻrinishidagi mashgʻulotlar, sinfda mustaqil ishlash, yangi materialni oʻrganing, bilim ,malaka va koʻnikmalarni takomillashtirish, nazorat, aralash, takrorlash, tekshirish darsklarini oʻrgatish.

Bundan tashqari oʻqish darslarida ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish ham juda muhim sanaladi.

Davlat ta'lim standartlarida ham, alohida urg'u berib o'tiladi. O'quvchilarda ifodali o'qish ko'nikmalarini takomilshtirish yuzasidan quyidagilardan foydalanish tavsiya etiladi;

-ifodali o'qish mashg'ulotlarini to'g'ri yo'lga qo'yish va yuqori saviyada o'tkazish;

-mavjud tajribalardan ijodiy va samarali foydalanish ;

-ifodali o'qish orqali badiiy asarlarning g'oyaviy mazmunini bilib olish;

-ifodali o'qishni zamon talablari va fazifalari,yoshlarning hayoti va qiziqishlari bilan uzviy ravishda bog'lab olib borish;

-badiiy asar chinakam so'z san'ati va haqiqiy hayot darsligi vazifasini o'tashini o'quvchi ongiga yetkazish;

-sodda va chiroyli, mahorat bilan o'qib, hayot lavhalari o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalantira olish;

-o'qishda to'g'ri talaffuz va badiiy asarda ifoda etilgan his-tuyg'uni yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini asarning mazmunini yoritib olish;

-o'qishning asosiy ohangini aniqlash o'qishning muvofiqiyatli chiqishi uchun zamin bo'lishi;

-Ifodali o'qishni yashitib tashkil etishda o'qituvchining ro'li;

-badiiy asarni chuqur va to'g'ri tushunishga odatlantirish;

-onglililik va ifodalilik o'qishning asosiy sifati bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligi;

-o'z nutqi ustida ishlashi bolalar nutqining tarkib topishi uchun omil ekanligini tushunish;

Shunday qilib o`qish darslarida o`quvchilarni nutqini o`stirish ham Davlat ta`lim standartining qonun va qoidalarida o`z aksini topmoqda.

Mustaqil O`zbekiston Respublikamizda umumlashtirilgan Davlat ta`lim standarti va o`quv dasturining 2010-yilda qaytadan mukammallashgan tarzda nashr qilinishi mamlakatimizda ta`lim sohasidagi ulkan yutuqlardan desak yanglishmaymiz. Bu ta`lim tizimi har bir javhada takomillashib bormoqda. Darslarda mukammal qo`llanishi, o`qituvchining ham o`zi ustida ishlashga, qolaversa o`quvchilarni shu talablarga javob beradigan qilib tarbiyalash va bilim sifatini oshirishga intilishi bunga yaqqol misoldir.

Masalan: o`qish darsida, Davlat ta`lim standartida shunday o`rinlar ko`rsatilgan. Tez o`qishlarda 1-sinf o`quvchisi bir daqiqa ichida 25-30 so`zni to`g`ri va ravon o`qishi, 2-sinf o`quvchisi 40-50so`zni to`g`ri va ravon o`qishi 3-sinflarda 60-70 so`zni o`qishi, 4-sinflarda esa 80-90 ta so`zni to`g`ri va ravon o`qishi kerakligi ta`kidlanadi. Demak, bu minimal ko`rsatkichlar sifatida olingan o`quvchi eng past o`zlashtirgan o`quvchi o`z sinf doirasida shunday ko`rsatkichni bajarishi shart ekanini ta`kidlagan. Davlat ta`lim standarti har bir fanlarda o`z aksini topgan. Yuqorida ta`kidlaganimizdek o`qish darslari hamisha Davlat ta`lim standartlari talablariga rioya qilingan holda olib boriladi. Buni har dars davomida kuzatilgan holda aniqlash va amin bo`lish mumkin. O`qish darsi eng optimallashtirilgan fan bo`lib adabiyot fanining, boshlang`ich ta`limda birinchi-yu ilk devochasidir. Shu sababli uni mukammal va izchil o`qish talab etiladi.

Yoshlarimizga har tomonlama kuchli bilim va salohiyat juda muhimdir, ularni har tomonlama aqlli bilimli va albatta kuchli ruhda tarbiyalash juda muhimdir. Bejiz yurtboshimiz Islom Abdugʻanovich Karimov shun taʼkidlamaganlar «Farzandimiz bizdan koʻra kuchli bilimli, aqilli va albatta, dono boʻlishlari shart» deya. Bu soʻzlarning zaminida ulakan maʼno bor. Axir «Yoshlari bilimli yurt –qudratli boʻlur» deya ham bejiz taʼkidlamagan. Yuqorida takror-takror aytganimizdek, avvalo bosh pogʻana boʻlgan boshlangʻich taʼlimga etiborni susaytirmasligimiz undagi maʼlum maʼnodagi kamhiliklarini bartaraf etishimiz zarur.

Buni birinchi boʻlib, qoʻlimizda ilk saboq koʻmakchisi boʻlgan, darsliklarimizdan boshlashimiz kerak.

Demak hozirgi kundagi darsliklarimiz davlat taʼlim standarti talablariga javob beradimi? Ayniqsa, darslikning ichidan oʻrin olgan rasmlar qanday mavzular doirasi-chi? Buni boshlangʻich sinflar misolida koʻrib chiqamiz.

I.3. „Aqlli boʻlish kifoya emas ,muhammi aqlni ishlata bilishdir“(Dekart. R). Shu oʻrinda bir olimning fikrlari yodimga tushdi, Demak, bundan koʻrinadiki, inson taʼlim bilan cheklanib qolmasdan, olgan bilim va koʻnikmalarini targʻib qila ola bilmogʻi kerak ekan. Ushbu yuqorida keltirilgan sitata I-bobning tub mohiyatini oʻzida jo eta olgan deyish mumkin.

II.BOB

Kim bilimni o'lchar dunyo mol bilan,

U gavharni teng qilar sopol bilan.

(Sa'diy Sheroziy).

II.Davlat ta'lim standarti talablarining o'qish darsliklarida aks etishi. 1-sinf o'quv dasturi va darsliklari har tomonlama Davlat ta'lim standartlariga javob bersa-da ayrim kamchilik va nuqsonlardan holi emas.

O'qish darsligi uchun, Davlat ta'lim standartida 68 soat ajratilgandir. 68 soat esa 7 bo'limni o'z ichiga oladi. Bu mavzularni o'rganish va targ'ib qilish jarayonida turli Davlat ta'lim standarti talablariga mos kelmagan hollarga ko'zingiz tushadi.

Davlat ta'lim ta'lim standartining o'qish darsliklarimizda o'z aksini topayotgani barchamizni quvontiradi, albatta.Lekin ayrim kamchiliklarimizdan ko'z yumib bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, dasturning darslikdagi o'rni va ahamiyatini ko'rib o'tamiz.

II.1. 1 va 2-sinf o'qish kitobi darsliklarining Davlat ta'lim standarti talablariga mosligi.

1-Sinf

T.G'offorova, E.SHodmonov, G Eshturdiyevalar muallifligi ostida nash qilingan. O'qish kitobi Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1 sinf uchun darslik sakkizinchi nashr O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tasqidlangan «Sharq» nashriyot-matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent 2010-yil o'quvchilar hukmiga halova etiladi.

Ushbu darslik 7 bo'limdan iborat bo'lib, bularni quyida ko'rib o'tamiz

va dastur talablariga mosligini ko'rib chiqamiz.

1-bo'lim. O'zbekiston-vatanim manim.(12 soat) Demak uning Davlat ta'lim 1-sinf o'qish darslari va D T S talablarining mosligi standartlariga qay darajada mosligini ko'rib chiqamiz. «Biz-buyuklar avlodi»

(11 soat) Ushbu bo'limda darslikda nazar soladigan bo'lsa, 19 betda Amir Temur o'g'itlari berilgan.

1. Do'stlik haqida:

Yaxshini yomon kunda sina.

Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi. Birliksiz kuch bo'lmas.

2. Aqil va adolat haqida:

Kuch – adolatda.

Oq bo'lsang, ond ichma.

Qo'rqmasang yov qochar.

Boshga qilich kelsa-da rost so'zla.

Qolaversa, 21-betda Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari berilgan.

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.


Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Yaxshi kishi yomonlarga ham yaxshiligini unutmas.

Yaxshilikni bilmasang, yaxshilarga qo'shil kabi hikmatlar ham berilgan.

O'QISH KITOBI

1



Bundan tashqari «Ilm aql chirog'i» (9 soat) bo`limida ham Davlat ta`lim standartida ko`rsatib o`tilmagan, lekin darslikda nazarimiz tushuvchi Yusuf Hos-Hojibning «O`quv va bilim haqida» hikoyasi berilgan .

O`quv qunt beradi, bilm-sharaf-shon.

Shu ikkovi tufayli ulug`dir inson.

«Bilimdan o`z bilimi tufayli balo ofatlardan omon qoladi» kabi hikmatlar hikoyani o`qiganingizda ko`zingiz tushadi.

«Xalq o`giti-baxt kaliti» (9 soat ) bo`limida darslikning 66-67 betlarida topishmoqlar berilgan.

1. Har kun yerga tushadi.

Ikkita parda sara

Ikki rangda ikkovi –

Oq parda, qora parda.

Tushganda qora parda,

Oq parda, bekinadi

Oqi tushsa agarda

Qorasi chekinadi (Kecha-kunduz)

2. Chopsa, chopilmas

Bo`lsa , bo`linmas

Kessa , kesilmas

Ko`msa , ko`milmas (Soya)

3. Yer tagida oltin qoziq-

U hammaga bo`lar oziq (Sabzi)

4. Yomg`irdan so`ng chiqadi,

Cho`tir qalpoq kiyadi,
Quyoshni yoqtirmaydi,
Shamolni chaqirmaydi. (Qo`ziqorin)

5. Ajib ishlar bo`ladi ?

Uxlaganlar ko`radi. (Tush)

6 Dum dumoloq bo`yi bor,
Polovda obro`yi bor. (Behi)

7. Bir onadan yuz bola,
Yuzovi ham bo`z bola. (Uzum)

8. To`ni silliq, tuki yo`q,
Ichi qizil, ko`ki yo`q, (Tarvuz)

«Odob insonga husn» (8 soat) ushbu bo`lim 8 soatga Davlat ta`limi standartida belgilangan bo`lib, biroq, darslikda ta`lim standartida ko`rsatilmagan mavzuga ko`zingiz tushadi. Masalan: Abdulla Avloniy «Taqsim» nomli hikoya berilgan.

Hissa:

Ozga qanoat qilmagan ko`pdan qolur.

Shu kabi davlat talim standarti talablariga monand kelmaydigan hollarni ko`ramiz. Bu hol albatta, qaysidir ma`noda yaxshidir, biroq ayrim ko`rinishlarda berilgan mavzuning bo`limga aksi sifatida kiritilishi kabi hollar ta`lim standarti talablarining buzulishi deya qaraladi. Davlat ta`lim strandartida har bir matn ustida ishlash haqida ham bir qancha fikrlar aytilgan.

2-Sinf

Buni 2-sinf o`qish darsligida ham ko`rib chiqamiz. Bu darslik Q.Abdullayeva, M.Yusupov, S.Rahmonbekovalar muallifligida nashr qilingan bo`lib, darslik O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan. «O`qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2010 yil o`quvchilarga havola etildi. Darslik har tomonlama talab darajalariga javob bersada, ayrim kamchiliklardan mutanosib emasdir.

Boshlang`ich ta`lim tizimida yuqorida ta`kidlaganimizdek Davlat ta`lim tizimi har bir sinflarda mos va hos kelishi juda muhimdir. Har bir bo`limning bir-biriga mos kelishi, mavzularning o`rinliligi va tartib qoidalarining mos kelishi juda muhim. Buning uchun har bir muallif o`z ishini mukammal holda bajargan bo`lishi shart.

2-sinf o`qish darslari va DTStalablari mosligi.

Masalan: 2-sinf uchun «O`qish va nutq o`stirish» ga davlat ta`lim standartida 136 soat ajratilgan. Biroq darslikga mavzular bitta ko`p kiritilgan. Davlat talim standartida Usmon Nosirning «Yur, tog`larga» she`ri kiritilmagan biroq darslikdan bu she`r o`rin olgan.

2-sinf uchun: O`qish darslarining asosiy qismi asarni o`qish va matn ustida ishlashga ajratiladi. O`quvchidan asar yuzasidan o`qituvchi bergan savollarga va darslikda berilgan savollarga javob olish rasmlarga qarab matnlarni qayta hikoya qilish, asarni mavzu darsini aniqlash,

O'QISH

KITOB



sarlavhasini asardagi asosiy fikr bilan taqqoslash, asarning to'liq mazmunini qayta yoki asar yuzasidan fikr bildirishiga o'rgatish.

Asarni qismlarga ajratish uning xat boshi bilan aloqadorligi haqida tasavvur hosil, qilish asar matnini eshitganalarni, ko'rganlarni, kuzatganlari asosida to'ldirish-ijodkorlik sifatlarini tarkib toptirish, asarda ishtirok etuvchilarni bilib olish, ularga eng oddiy tavsif berish: yaxshi-nima uchun yaxshi, yomon-nima uchun yomon ekanini dalillash. Shaxslarni tabiat manzaralarni tasvirlovchi badiiy ifodalarni o'qituvchi yordamida aniqlash o'quvchilar nutqiga kirish, ko'p ma'noli so'zlar ishtirokida birikmalar yoki gaplar tuzdirish, diqqatini so'zning ma'nosiga qaratish, «O'qish kitobi» mundarijasidan kerakli asarni topishdir.

She'r shunday misralardan iborat:

«Yur tog'larga»

Yur, tog'larga chiqaylik,

Mayli, yur!

Eh... qandayin chiroylik

Oppoq nur...

Olmos kabi oppoq qor

Yaltirar

Nega muncha dil oqar

Qaltirar ???

Bilasanmi, yoshlik bu

To'ymagan,

Tinim bilmas, go`yo suv

O`ynagan...

Shunga o`ta chiroylik

Ko`runur...

Yur, tog`larga chiqaylik

Mayli, yur !

Bu mavzu darslikning birinchi bo`limi «Ona yurtim oltin beshigim» (19 soat ) deb nomlangan. Bo`lim o`quvchilarimizga bizning ona yurtimiz-O`zbekiston Respublikasi uning poytaxti Toshkent ekanini, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg`ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surhandaryo, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy kabi viloyatlar borligi uqtiriladi.

Har kim ona yurtini sevish, uning tinch, go`zal bo`lishi uchun harakat qilishi o`quvchilarga hayotiy misollar bilan tushuntiriladi. O`zbekiston xaritasidan mamlakatimiz hududi va undagi qadimiy shaharlar ota-bobolarimiz o`z ona yurtlari ozodligi yo`lida kurashib kelganliklari , bugungi vatanimiz gozalligi xalq farovonligi yo`lida o`qish va mehnat qilish kerakligi haqida uqirilad.

Mexnat-baxt keltirar (10 soat) Mazkur bo`limdagi matnlar o`quvchilarda mehnat qilishga, hunar o`rganishga ihlos qo`yish kabi hislatlarini tarbiyalaydi. O`quvchilarga mehnatkash ota-bobolarimizning mehnatdan baxt-saodat topganlar, o`lkamizda bog`-rog`lar, ekinzorlar yaratilganliklari,ularning faol mehnatlari haqida lavhalar tavsiya etiladi. Ular mehnat haqidagi hikmatli o`gitlar ,maqol va masallar mazmuni bilan tanishtiriladi;

O'quvchilarga mehnat tufayli to'q-farovon yashash mumkiligi, bolalarning kattalar yordami, ular oldida farzandlik burchini bajarishlari, orasta va saramjon-sarishta bo'lishlari, oila iqtisodi, tejamli bo'lish haqida tushunchalar beriladi.

Davlat ta'lim standartida to'qqizda mavzu berilgan bo'lsa 2-sinf darsligida 11 ta mavzu berilgan, ya'ni A.Akbarning "Bolaridan" she'ri va G'iyos Komilovning «Arra g'iz g'iz» she'rlari darslikdan o'rin olgan. Bu bo'lim uchun davlat ta'lim standartida o'n soat vaqt ajratilgan. Otalar so'zi-aqilning ko'zi (12 soat). Odob-axloqqa doir fazilatlarining shakillantirib borish, ota-bobolarimizning durdona fikrlarini yod olish, ularga amal qilish ibрати voqea-hodisalar ifodalangan matnlarni o'qish ulardagi ma'nolarni tahlil qilish, misollar keltirish. O'quvchilarga milliy an'analarga ruh uyg'otish. Bu bo'limda davlat ta'lim standartida 12ta mavzu, 12 soatga berilgan bo'lib darslikda esa 16 mavzu berilgan. Darslikda «Ha» bilan «Ho'p» Tolip Yo'ldoshning she'ri, «Nasihatlar» nomli hikmat, Shorasul Zunnunovning «Ruxsat so'rash odobi» va bir qator olimlarimizning hikmatlari berilgan. Demak, Davlat ta'lim standartini kuzatganingizda bu mavzularning yo'qligiga ko'zingiz tushadi.

Zumrad bahor-bahri diling ochar (16 soat). Bahor tabiati, gullar, o'simliklarning hayoti, kishilarning mehnati, bolalarning o'yinlari haqidagi asarlar va she'rlar. 8-Mart onalarimiz bayrami. Bayramda barcha qutlanadi. Bahor tabiatda sayr va sayohatlar.

Ushbu bo'limga yuqorida ta'kitlaganimizdek 16-soat vaqt ajratilgan.

Biroq darslikda qo'shimcha tarzida Eson Rahimovning «Hissang qo'sh» she'ri, Kavsar Turdiyevning «Bahor»,Tojiddin G'ozievning «Rasm» matni va Murod Hidirning «Qo'riqchi» hikoyasi berilgan. Bu Davlat ta'lim standartining darslik bilan mos kelmaganini ko'rsatmoqda. Ertaklar-yahshilikga yetaklar bo'limi (13-soat).

Ertaklar olamiga sayohat, nima yaxshi-yu nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib olish. Ertak qahramonlarining holatini so'zlab berish, voqealarni rasmda ifodalash. Bu bo'limda mavzular uchun 13-soat Davlat ta'lim standartlarida ajratilgan. Darslikda esa mavzular ko'proq kiritilgan.

Ya'ni bo'limda „O'zbek halq ertagi“ «Sanog'idan adashmadi» ertagi va „Qozoq ertagi“ bo'lgan «O'ktam» ertaklari kiritilgan. Bu ularning mos emasligini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari: Yoz-o'tadi soz (8-soat) bo'limi.

Yoz tabiati, pishshiqchilik, o'quvchilarni yozgi ta'til kunlaridagi dam olishlari va mehnalari haqidagi she'rlar, matnlarni o'qish hamda yod olish.

Ushbu bo'lim davomida shunday topshiriqlar bajariladi. Bu bo'limda o'quvchilar yozgi ta'tilni rejalashtiradilar.

Davlat ta'lim standartida «ob-havo darakchilari»nomli she'r berilgan. Biroq bu she'r darslikga kiritilmagan demak, shunday qilib, standart talablarini darslik bajarmaganini ko'rsatmoqda.

Tabiatni asrang, avaylang (6- soat) bo'limi bu bo'lim bolalarni tabiatga yaqinlashtirish maqsadida u haqidagi ajdodlarimizning

nasihatlarini shoir va yozuvchilarning asarlaridan namunalar, matn mazmuniga mos rasmlar beriladi.

Darslikda berilgan asarlar o'quvchilarni tabiatga mos rasmlar ishlashga, ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Atrofimizdagi olam darsi bilan bevosita bog'lanib, mujassamlashgan savollar berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Ushbu bo'limda darslikda «Topishmoqlar» berilgan, biroq Davlat ta'lim standartida ushbu mavzu ko'rsatilmagan. Shunday qilib ikkinchi sinf darsligi o'n bir bo'limni o'z ichiga oladi. Darslik mukammal tarzda tuzilgan bo'lishiga qaramay yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklardan holi emas. Darslikdagi bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun Davlat ta'lim standartini mukammal o'rganish va targ'ib qilish zarur deb o'ylayman. Darslik ko'rinish jihatidan talab darajasida bo'lsada, biroq mavzular doirasi o'zgarishni ko'rsatmoqda. Qolaversa, bo'limlarning ketma-ketligi Davlat ta'lim standarti tartibi bo'yicha emas. Darslikdagi bo'limlar tartibi butkul tartibsizlikni ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkichlardan tashqari o'quvchilarda Davlat ta'lim standartida ko'rsatilganidek o'qish ko'nikmasini shakllantirish ham juda muhim.

O'quv yilining birinchi yilida ya'ni yarmida: ongli, to'g'ri butunligicha sidirg'a o'qish; o'quv yilining ikkinchi yarmi: so'zlarni yahlit (ayrim ko'p bo'g'inli so'zlarni bo'g'inlab) to'g'ri tushunib va ifodali o'qish; o'qish vaqtida, va gap ohiridagi tinish belgilariga mos to'htam (pauza) hamda ohangga rioya qilish; matnlarni to'g'ri, meyorida, ravon o'qish, Matn ustida ishlash.

Og`zaki bog`lanishli nutq.

Matn mazmuni asosida tuzilgan savollarga javob berish.

O`qilganlarga o`z munosabatini bildirish.

O`qituvchi savoli yoki darslikda berilgan rasm asosida matnni mazmunini qayta hikoylash.

O`qituvchi yordamida matnni qimlarga bo`lish ularga sarlavha tanlash, matnning asosiy mazmunini aniqlash; matnda qatnashuvchi shahslarni, tabiat manzaralarini tasvirlovchi so`z va iboralar tahlil qilish hamda shu so`zlar ishtirokida og`zaki hikoya tuzish

Ertak, she`r, hikoyalarni janri hususiyatlariga ko`ra farqlay olish. Darslik mundarijasi bilan ishlay olish. Bundan tashqari sinfdan tashqari o`qish va nutq o`stirish (17-soat), davlat ta`lim standartida ko`rsatib o`tilgan. O`qish materiyallari 8-30 bet hajimdagi bolalar bop badiiy, ilmiy-adabiy kitoblar. O`quvchi ovozsiz mustaqil o`qish va tanlab ovoz chiqarib o`qish uchun 1-5 hajmli she`r, ertak va hikoyalar. O`qish mavzulari ona-vatan va ota-bobolar jasorati o`simliklar hamda qushlar hamda hayvonlar haqidagi asarlar. Kitobning muqavasi (tituli), betlarini farqlay olish. Kitobning nomi, muallifi va rasmlari asosida mazmunini aniqlay olish. Kim yoki nima haqida o`qidingiz? Savoliga javob berish; mazmunini aniqlash, qaxramonlarning hatti-harakatini, hulqini va ular boshidan kechirgan voqea-hodisalarni mustaqil baholay olish kabi ko`nikmalarni shakillantirish zarur.

Demak, darsliklarga nazar tashlar ekanmiz Yurtboshimizning ulug` bir fikirlari yodimga tushdi.

**«Agarki dunyo imoratlari ichida eng ulugʻi maktab boʻlsa,
kasblarning ichida eng sharaflisi oʻqituvchilik va murabbiylikdir»**

Islom Karimov «Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch» kitobidan.

Bu bejiz emas, oʻqituvchilik juda mashaqqatli shu bilan birga sharaflidir.

11. Abdullayev Q. Yusupov M. „Oʻqituvchi“ nashriyoti Toshkent-2010

12. Karimov I.A. „Yuksak maʼnaviyat-yengilmas kuch“ „Maʼnaviyat“-2008. B. 72



I.A. Karimov

II.2.3-4- sinf o'qish kitobi darsliklarining Davlat ta'lim standarti talablari bilan mutanosibligi.


3-Sinf

3-sinflarning M.Umarova, SH.Hakimovalar muallifligidagi to'ldirilgan o'ninchi nashr O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tamonidan nashrga tavsiya etilgan.

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent-2010 yil ushbu darslikga nazar tashlar ekanmiz buning Davlat ta'lim standartlariga qay darajada javob berishini ko'rib chiqamiz. 3-sinflar uchun Davlat ta'lim standarti 170-soat ajratilgan bo'lib o'n uch bo'limni o'z ichiga oladi. Demak, bo'limlardagi mavzularni darsliklarga qiyosiy o'rganamiz «Ona bitta,vatan yagona» (19 soat) bu bo'limda 3-sinf o'qish kitobi darsliklari va DTS talablari mo'quvchilarga O'zbekiston Respublikasining mustaqil mamlakat ekanligi yurtimizda so'ngi yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari haqida tushuncha beriladi.

Har bir kishi o'zi tug'ulib o'sgan ona-Vatanini sevishi, ona tilini qadrlashi, ozod mamlakatning erkin farzandi bo'lishi, yurt badiiy ovonligi, xalq hayoti va mehnati, fidoiy zamondoshlarimiz haqidagi asarlar berilgandir.

Bu tushunchalarni mavzularni o'rganish davomida egallaymiz. Darslikka nazar tashlaganimizda Davlat ta'lim standartida ko'rsatilmagan mavzular o'rin olgan. Masalan: «O'zbekiston Respublikasi bayrog'i», «O'zbekiston Respublikasi gerbi» mavzularning berilishi juda yaxshi lekin mavzularning Davlat standartiga kiritilmagani yomon holdir.



Shuningdek Erkin Vohidovning «O`zbekim» she`ri ham.
Tarihindir ming asirlar.
Ichra pinhon,o`zbekim.
Senga tengdosh Pomiru.
Oqsoch Tiyonshon o`zbekim.
Al-Beruniy, Al-Xorazmiy,
AL-Farob avlodidan,
Asli nasli balki O`zlik,
Balki Tarhon O`zbekim.
Mir Alisher narasida
Aks-sado berdi jahon,
She`riyat mulkida bo`ldi.
Shohu sulton O`zbekim.
Qayga bormay boshda do`ppi,
Shuhrating qadring buyuk.
Olam uzra nomi ketgan,
O`zbekiston o`zbekim.

She`ri va «Muazzam san`at koshonasi nomli» «Gullar» dan keltirilgan, ushbu matn yurtimizning go`zal obidalari va qadimiy joylariyu bugungi kundan sado beradi.

Keyingi bo`limimiz:

«Xalq og`zaki ijodi» (17-soat).

Bu bo`limda xalq og`zaki ijodiga oid qo`shiq, ertak, masal, maqol, latifa, topishmoqlar kiritilgan. Ular orqali xalqning orzu-umidlari, do`stlik,

axillik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik fazilatlari ulugʻlanishi, salbiy hislatlarning qoralanishi uqtiriladi.

Davlat taʼlim standartida koʻrsatilmagan bir qator xalq ogʻzaki ijodiga mansub boʻlgan dostonlar, maqollar, iboralar darslikdan oʻrin olgan.

«Rustamxon», «Alpomish» dostonlari va «Kitoblardan yaxshi doʻsty yoʻq», «Yomondan qoch,yaxshiga yondash» kabi maqollar oʻrin olgan. Shuningdek yaʼna bir qator topishmoqar va tez aytishlar bunga yaqqol misoldir.

Osmondan par tushadi,

Par emas, zar tushadi (qor)

Ongimizga nur sochar,

Sirlar eshigin ochar. (kitob)

Olsam oʻng qoʻlga,

Tushadi oq yoʻlga (ruchka).

Sanʼat saroyi-saroylarning sarasi.

Qishda qatiq qattiq qotib qolibdi kabi.

«Kuz manzarasi» va mehnat (14-soat)

Mazkur boʻlimda yurtimizning oʻziga xos kuzgi tabiat manzarasi, kishilar mehnati mehnat tufayli shahar-qishloqlarning obod boʻlishi mehnat zavqi, milliy urf-odatlarimiz sheʼr, hikoya, rivoyatlar aks ettirilgan.

Bu boʻlimda, darslikning, 49-betida Yusuf Shomansurning «Kuz» sheʼri va K.Yersarinning «Vada berdi» nomli ertaklari oʻrin olgan.

Etiborlisi shundaki, bu sheʼr va ertaklar Davlat taʼlim standartida koʻrsatib oʻtilmagan. Bunday holni koʻpgina boʻlimlarda koʻrishimiz mumkin:

«Kumush qish» (6 soat) boʻlimi.

Ushbu boʻlimda qish manzarasi, tabiati, hayvonlarning qishki hayoti, kishilar mehnati, bolalarning qishki oʻyinlari, yangi yil bayrami haqidagi adabiy-badiiy asarlar oʻrin olgan.

Yuqorida koʻrsatib oʻtganidek bu boʻlim uchun 6 soat ajratilgan.

Taʼlim standartlarida koʻrsatilmagan mavzu «Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi» mavzusi oʻrin olgan. Ushbu mavzu Davlatimiz qomuslarini yaxshi bilishga oʻrgatishi maʼlumdirm, biroq bu taʼlim standartida koʻrsatilmagani yaxshi emas.

Eng ajablanarlisi shuki, faqat mavzularning emas boʻlim nomlarining ham Davlat taʼlim standartiga mos kelmasligi hayratlanarli holdir.

Masalan: taʼlim standartida «Vatan himoyachilari» boʻlimi darslikda «Vatan posponlari» deya sinonim tarzida qoʻllanilgan. Taʼlim standartida «Orzuvlar qanotida» boʻlimi berilgan boʻlib, darslikda esa «Tengdoshlar» deya atalgan. (10 soat).

Boʻlimda oʻzbek shoir va yozuvchilarining kichik yoshdagi tengqurlar hayoti, ularning qiziqishlari, orzu-umidlari, doʻstligi, odob-ahloqi, kattalar va bolalarning bir-birlariga yoramllari, ustoz va shogirt munosabatlari yoritilgan, adabiy-badiiy asarlari oʻrin olgan.

. Qolaversa standartda koʻrsatilmagan sheʼr va ertaklar ham bu boʻlimda oʻrin olgan. Abdusalom Umarovning fantastik «Koinitga sayohat»

nomli ertagi va Tolib Yoʻldoshning bir qator toʻrtliklari darslikdan oʻrin olgan. «Ulugʻlardan oʻganmoq-oqillik» (18 soat) ajratilgan.

Maskur boʻlimda oʻquvchilarning oʻtmishda xalqni va vatani uchun, maʼrifat rivoji uchun hizmat qilishini oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan allomalarning bolaliklari, bolalikdagi qiziqishlari, jasoratlari, kasb-hunar, bilim egallash yoʻlidagi saʼy-harakatlari xalqqa koʻrsatgan gʻamxoʻrliklari, yurt obodonchiligidagi hizmatlari toʻgʻrisidagi fikrlar kiritilgan.

Davlat taʼlim standartida koʻrsatilmagan bir qator mavzular ham darslikda oʻrin olgan. Masalan: «Mustaqil Oʻzbekistonning», «Hadislardan naqllar» namuna.

Eng yaxshi ish.

Paygʻambardan:

-islomda qaysi ish eng yaxshi sanaladi?-deb soʻrashibdi.

-ochlarga taom, tanish-notanishlarga salom, -deb javob beribtilar Paygʻambarimiz.

Eng yomon ish

-dunyoda eng yomon hamda qutulib ketishning iloji yoʻq ish nima?-deb soʻrashibdi.

-nohaq qon toʻkilishi,-deb javob beribdilar Paygʻambarimiz.

va Mirkarim Osimning «Kitobga ixlos» hikoyasi, Poʻlat Moʻminning «Ibn sino bobo-ulashar davo» nomli oʻgʻitlari;

Xom suvni ichma,sogʻlikdan kechma.

Yeb boʻlib ovqat, yugurma faqat.

Ogʻrimay desang, choy meva yesang.

«Amir Temur o`gitalari»:

Chin do`st uldirkim, do`stidan xech qachon ranjimaydi.

Agar ranjisa ham uzurini qabul qiladi.

Sodiq va vafodor do`st bilki, agar kerak bo`lsa do`sti uchun jonini ham ayamaydi.

«va Navoiy hikmatlari».

Bilmaganni so`rab o`rgangan olim, orlanib so`ramagan oziga zolim.

Olamdan g`amsiz o`tay desang, ilm-u hunar o`rgan.

Sabr bila ko`p bog`lik ish ochilar, ishda oshiqqan ko`p toyilur, va Hoji Abdurazzoq Yunusning «Ilm» nomli rivoyati berilgan. Yuqorida ta`kidlaganimizdek bu mavzular darslikdan o`rin olgan. Bundan tashqari Davlat ta`lim standartida «Keldi bahor-gul bahor» (11 soat) bo`limi darslikda «Bahor manzarasi va mehnat» deb nomlangan.

«Tabiatni seving va asrang» bo`limida esa «Non-inson hamrohi» nomli matda darslikda berilgan bo`lib, biroq bu standartda ko`rsatilmagan. Yana «Go`zal fazilat-inson husni» bo`limida Davlat ta`lim standartda ko`rsatilmagan mavzu, darslikda berilgan.

Ya`ni, «Bir donishmantdan so`radilar» Sh.Zunnun va I Zunnunovlarning «Donishmantlar odob-ahloq to`g`risida» kitobidan.

Bir donishmantdan so`radilar:

-dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa nima-yu eng yomon narsa nima?

Donishmand javob berdi:

-dunyoda inson uchun eng yaxshi narsa go`zal ahloq, tarbiya serg`ayratdir. Shu go`zal fazilatlar bilan nom chiqarishdir.

O`limdan ham yomon narsa esa tarbiyasizlik va yalqovlik bilan tanilishdir.

Shuningdek shu bo`limda Hakim Nazirning «Qoida» nomli hikoyasi, Elbekning «chumoli bilan chivin» masali, yuk ko`tarib ketayotgan chumoliga yo`liqib, chivin kuldi uning ahvoliga:

-Hoy,hoy ochko`z, qadrini bilmas boyaqish!

Terlab charchab ishlaydiansan tinmay yoz-qish.

Berdaqning «Bolam» she`ri

Taltaymagin erka bo`lib,

Yig`lamagin to`lib-to`lib,

Qolmagin och, ranging so`lib,

Mart bo`l yoshlikdan, ey bolam!

Va «Spost ustasi» nomli matn berilgandir.

Ushbu matnda o`zbek iftixori bo`lgan Mirjalol Qosimov haqida so`z boradi. Ushbu sportchining muvofaqiyati, hayot yo`li ya`ni sportda erishgan yutuqlari haqida so`z boradi. Yuqorida ta`kidlaganimizdek ushbu matn Danlat ta`lim standartida ko`rsatilmagan.

Shuningdek«Yoz manzarasi va mehnat» nomli bo`limda ham Mirzo Ahadning «yettinchi olimpiya sport maktab-internati» nomli matn berilgan bo`lib, matnda bir qator yurtimizning iftiharli sportchilari haqida so`z boradi.

Sportchilarimizning namunali ijod yo`li, o`rnak bo`ladigan hayot yo`li haqida so`z boradi. Bundan tashqari lug`at ham berilgan.

Ushbu mavzular Davlat ta`lim standartida ko`rsatilmagan bo`lsada biroq darslikdan o`rin olgan. Bu bir tarafdin yaxshi

bo'lsada,ayrim ko'rsatkichlarda darslikning Davlat ta'lim standartiga javob bermasligini ko'rsatadi.

4-Sinf

Matchonov.S. Shojalilov.A. G'ulomova X. Sariyev. Sh.Z. Dolimov.
O'qish kitobi Umumiy ta'lim maktablarining 4-sinflari uchun darslik
3-nashri.O'zbekistonRespublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tasdiqlagan.Toshkent „Yangi yo'l poligrafix servise“2011.

4-sinf o'qish darslarini o'rganib chiqish davomida shunga guvoh bo'ldimki,u Davlat ta'lim strandarti bilan mutanosiblikni ko' rsatmoqda.


Shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, hozirgi kunda talim tizimi izchil ravishda jadallab rivojlanib bormoqda. Bu bir tarafdin yutuqlarimiz ko'rsatkichlarini belgilasada, ayrim tarafda kamchiliklarning ortishiga ham sabab bo'ladi.

Masalan: boshlang'ich sinf darsliklari yildan-yilga yangi –yangi nashrlariga ko'zimiz tushadi. Uni ochib ko'rish davomida uning mukammalashayotganiga guvoh bo'lasiz. Qolaversa ko'rish saviyasi ham ortgani o'quchilarni ham quvontiradi. Biroq darslik yangilangani sayin, birinchi yilgi bir xato bo'lsa, ikkinchi yili yana bir xatoga 4-sinf o'qish kitobi darsliklari va DTS talablari mosligi ko'zingiz tushadi. Ya'ni yutuqlar ortgani sayin, kamchiliklar ham ortib boradi.

Demak, bu kamchiliklarni bartaraf etish, yutuqlarimizni esa bundanda yuqori ko'rsatkichlarga ko'tarish har bir yosh avlodning muqqaddas burchidir desam yanglishmayman Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning shunday ulug'vir fikrlari bor:
«Ma'naviyat jihatdan mukammal rivojlangan insonni tarbiyalash,

O'QISH KITOB

4



ta'lim va maorifni yuksaltirish, milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi», deya ta'kidlab, «Bizga bitiruchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak» ligini ta'kidlaydi. Yurtboshimizning bu fikrlari naqadar teran va o'rinlidir.

Chindan ham bizlar albatta, bo'lajak pedagogar ekanmiz, avvalo boshlang'ich ta'lim bizning qo'limizda ekanini unutmaslik, birinchi poydevorlarni mustahkam qurishimiz, bizning oldimizda turgan eng muqaddas va sharafli burchimizdir. Shuningdek har bir ta'lim tizimi Davlat ta'lim standartlari talablariga to'la javob beradigan tarzda olib borishimiz kerak.

Shuningdek yuqorida o'qish darsliklarining Davlat ta'lim standartlariga qay darajada mutanosibligini ko'rib chiqdik.

Yuqorida 1-2-3-4 sinf darsliklariga nazar tashladik. Ya'ni Davlat ta'lim standartida ko'rsatilmagan bir qator mavzularga ko'zingiz tushadi. Ayrim mavzular oldingi mavzuni mustahkamlash uchun bo'lsa, ayrim mavzular esa bo'limlarga umuman mutanosib kelgandir. Buni bartaraf etish uchun, har doim darsliklar va Davlat ta'lim standartini uzviy bog'lab olib borish juda muhim.

Demak zamon talablariga mos va monant darsliklar bo'lishini aytsak, darslik ko'rinish jihatidan ham, mavzular doirasida ham mukammal bo'lishini e'tiborga olish lozim.

III.3. „Bilimsiz yoki chalasavod farzand-yo'qotilgan farzanddir“. (Jon Kennedi).

Ushbu sitatamiz yuqorida ko'rib o'tilgan 1-2-boblarni izohlaydi.

III.BOB

O'qish darslari samaradorligini oshirishning muhim shartlari:

Boshlang'ich sinf o'qish darslari sifat va samaradorligini oshirishning bir necha imkoniyatlari va shartlari mavjud. Chunki o'qish darsining maqsadiga muvofiq tashkil etish va uni o'tkazishda matn ustida ishlash bilan bog'liq bo'lgan barcha ish turlari u yoki bu darajada katta ahamiyat kasb etadi. Matn ustida ishlashning bir nechta turlari bor. Bunday ish turlari, usullari, matn ustida ishlashni asosiy bosqichlariga birinchi sintez- analiz –ikkinchi sintez bosqichlari kiritiladi. Bular shak-shufhasiz har bir o'qish darsida amalga oshiriladi. Birinchi sintezning (birinchi bosqich) mazmun-mohiyati shundan iboratki, matn mazmuni (janridan qat'iy nazar, qanday uslubda, vositada, sharoitda) an'anaviy, noan'aviy, usulda bo'lmasin o'quvchilarga matn mazmuni yaxlit holda tushuntirilishi lozim, ya'ni pirovard natija o'qib beradimi, so'zlab beradimi, matn mazmunini birinchi bosqichda to'liq idrok etilishiga erishish ta'lab etiladi. Analizning (ikkinchi bosqich) mazmun-mohiyati shuni nazarda tutadiki, bu bosqichda idrok etilgan g'oya, voqea-hodisa (mazmun) ijobiy, salbiy, kerakli, keraksiz, ibrat olish, o'rganish zarurligi, zarari nafratlanish joizligi kabilarga ajratiladi, mazmun o'quvchilar saviyasi darajasida oq-qoraga ajratiladi. Uchinchi bosqich hisoblangan ikkinchi sintezning mazmun-mohiyati shuki, matn g'oyasi, mazmuni, voqea, hodisalari hayotga, zamonga, boshqa fanga o'tilgan, mavzularga, boshqa fanlarga bog'lanadi. Munosabat bildiriladi,

tarbiyaga, qadiriylatlarga, ma'naviyatga bog'lanadi, kasbga yo'llanadi va hokozo.

O'qish darslarining yuqori sifatda o'tkazilishi har uchala bosqichning ham maqsadga muoffiq o'tkazilishini talab etadi. Masalan, birinchi sintez muofiqliyatli chiqmasa ham analiz ham ko'ngildagiday va qiziqarli chiqmaydi, har ikkalasi talablar darajasida o'tkazilmasa, ikkinchi sintez haqida gap-so'z bo'lishi u yoqda tursin, dars sifati haqida o'ylashni o'zi bo'lmaydi. Demak, har uchala bosqich ham bir – birinchi qattiy taqozo etadi, anglashiladiki matn ustida ishlashning asosiy bosqichlari hisoblangan bu jarayonlar, bolalarni darsga bo'lgan qiziqishini, fikirlashini, ijodkorligini, faolligini yuqori darajada ro'yobga chiqarish bilan birga, o'qish darslari sifat va samaradorligini yuzaga chiqaradigan asosiy shart va zaruriy omillardan hisoblanadi. Bu bosqichlarsiz o'qish darslarini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Matnlardan misollar keltirmadik, chunki bosqichlarning mazmuni, mohiyatini matn taxlillarisiz tushunish mumkinligi ayon bo'lib turibdi.

Mazkur ishda biz taxlil qilmoqchi bo'lgan ishlar ma'lum darajada birinchi sintez hamda ko'proq ikkinchi bosqich analiz bilan bog'liqdir. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, birinchi sintez (1-bosqich)da, Analizda ham (2-bosqich)da ham ko'plab ish turlaridan foydalaniladi, shuning uchun bu ishda bu haqda taxlillar, taklif va tavsiyalar, fikrlar bildiramiz. Birinchi va ikkinchi bosqich o'qish darsining asosiy yo'nalish va tamoillarini belgilab beradi. Demak, 1-va 2-bosqich (birinchi sintez -- analiz)da qanchalik samaradorlikka erishilgan bo'linsa, 3-bosqich

(ikkinchi sintez)da ham huddi shunday natijalarga erishish mumkin bo`ladi.

Boshlang`ich sinflarni o`qish darslarida matn ustida ishlashning asosiy bosqichlaridan hisoblangan 1-bosqich birinchi sintezda, birinchi sintezni amalga oshirishda ham ko`plab ish turlaridan foydalaniladi, ya`ni 1-bosqichni yuqori saviyada o`tkazish uchun (agar mashg`ulot an`anaviy usulda olib borilayotgan bo`linsa), matn mavzusi xattaxta yoki (slyd) ga yoziladi, mavzuning tepa yoki pastki qatorining o`ngrog`ida (satr yarimidan keyin)matnning muallifi bo`lsa,yoziladi va u haqda qisqa hayoti, kitoblari oldingi sinflarda o`tiladigan asarlari eslatiladi, o`quvchilarning bu muallif haqidagi bilimlari eslatiladi, portretini ko`rsatish,kitoblarini ko`rsatish orqali u haqda ma`lumotlar beriladi, ma`lumotlar muallif yashagan davr bilan bog`lanadi,shundan so`ng lug`at ishi o`tkaziladi. Lug`at ishi turlicha usullarda o`tkazilishi mumkin.Ya`ni notanish so`z ma`nolarini matn ostidagi izohlardan (bo`lsa) foydalanib tushuntirish ham maqsadga muvofiqdir. So`z ma`nolarini xattaxtaga yozib ham izohlash mumkin. Bunday so`z ma`nolarini ko`rgazmali qurollarga yozib tushuntirish ham uslubiyotga hosdir.Bundan tashqari xattaxtaga yozib izohlashning bir nechta ko`rinishlari mavjud: ya`ni dars jarayonida to`ppadan-to`g`ri xattaxtaga yozish davomida ma`nolarni izohlash, mashg`ulotdan oldin xattaxtaga yozib, parda bilan berkitib qo`yib, kerakli paytda pardani ochish,lug`at ishini ko`chma xattaxta orqali ham o`tkazish joiz bo`ladi. Lug`at ishini o`tkazishga ona tili va adabiyoti o`qituvchilarini taklif etish ham foydadan holi emas deb o`ylaymiz.Lug`at ishini ma`nosi notanish

soʻzning sinonimini, antonimini keltirish orqali ham, qoʻllanilgan jumladagi maʼnosini keltirish asosida gaplar orqali izohlash ham mumkin.

Bu oʻrinda oʻz-oʻzidan savol tugʻiladi: 1.Lugʻat ishini birinchi sintezdan avval oʻtkazish zarurmi yoki,birinchi sintezdan keyin olib borgan uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqmi?Shuni taʼkidlash joizki,lugʻat ishini 1-sintezdan avval oʻykazgan foydaliroqdir.Chunki bunday qilinsa, birinchi sintezni amalga oshirish osonroq boʻladi deyishimiz mumkin.Sababi lugʻat ishini oʻtkazib olgan boʻlsangiz matn mazmunini soʻzlayotganda yoki matnni oʻqib berayotganda bunday soʻzlarni maʼnolarini izohlab oʻtirmaymiz, balki toʻgʻridan-toʻgʻri oʻqib yoki nutqda ishlatib ketaverasiz.Birinchi sintezdan keyin oʻtkazsa ham boʻlaveradi, lekin bunda bir ish ikki ish boʻladi.Notanish soʻzni yoʻl-yoʻlakay izohlashga toʻgʻri keladi bunda oʻquvchilarning diqqati, fikrlari boʻlinishligini ihtimoli mavjud. Lekin birinchi sintezdan keyin ham (lugʻat ishi oʻtkazilgan boʻlsa ham) oʻquvchilardan maʼnosi notoʻliq ,tushunarsiz,maʼnosini tushunmagan soʻzlar bormi? deb soʻrab qoʻyish metodik jihatdan ham toʻgʻri. (Bunda vaziyatga qarab ish yuritiladi).

Muallif jihatdan maʼlumotlar,lugʻat ishi oʻtkazilgandan keyin , 1- sintezdan amalga oshiriladi. Sheʼriy matn boʻlsa avval ifodali qilib oʻqib berish talab etiladi, keyin sheʼriy matn mazmuni soʻzlab beriladi.Hikoya,ertak,asarlardan parchalar,rivoyatlarni oʻqib berish yoki soʻzlab berishning oʻzi kifoya qiladi. Ilmiy – ommabop matnlar, hadislarning zarur oʻrinlarini oʻqib berish va soʻzlab berishning yoʻrigʻi boshqa.

Birinchi sintezni iloji boricha ko'rgazmali vositalar yoki ekranlardan foydalanib o'tkazish maqsadni amalga oshirishning yengil usullaridandir. Birinchi sintezni o'tkazish uchun har bir o'qish darsining eng kamida yarimi (20-22 minuti) sarflanishi lozimdir. Mavzu bir nechta bo'limdan iborat bo'lsa, matnni o'zlashtirishga bir soatdan ortiq vaqt berilgan bo'lsa, mashg'ulotning birinchi soatida 1-sintez o'tkaziladi. Bu soatda mavzu yuzasidan (nechta bo'limdan iborat bo'lsa ham) yaxlit tushuncha idrok etish kerak. Keyingi darsda analiz va ikkinchi sintez amaliyoti o'tkazilaveradi.

Endi o'qish darslarida samaradorlikka erishishning muhim omillarini yuzaga chiqaruvchi 2-bosqich (analiz) da qilinadigan, qo'llaniladigan barcha ish turlari, ulardan foydalanish yo'llari haqida fikrlar keltiramiz. Birinchi sintezdan so'ng o'quvchilar, albatta, matnni (nazm, nasr) ichdan (ko'z bilan) o'qishlari kerak. Faqat shundan keyingina savollar va boshqa topshiriqlarni berish mumkin. Ular ovoz chiqarib o'qish, rollarga bo'lib o'qish, izohli o'qish, qayta hikoyalash, (kengaytirib, qisqartirib, ijodiy, tanlab, hikoyalash) savol tuzish, reja tuzish (matn rejasini tuzish) matnni bo'limlarga, qismlarga bo'lish, abzastlarga ajratish, ijoboy, salbiy voqealarga ajratish, rasm asosida suhbat, sarlavha (matn qismlariga) topish, ifodali o'qish, tez, ongli, to'g'ri, ta'sirli (emotsional) o'qish, ma'nosini tushunilmagan so'zlarni aniqlash, lug'at ustida ishlash, asosiy fikrni ifodalagan gapni, ismni topish, matn so'ngida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash, diologlarni topish, ko'chirma gaplarni aniqlash, tanlab o'qish, matn rasmini chizish (matn mazmuniga mos rasm chizish) kabi ish turlari

o'tkaziladi. Bu ish turlari matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda u yoki bunisidan (ko'pi bilan 5-6 tasidan) foydalaniladi. Bularni keng ma'noda matn mazmunini ta'xli qilish yo'llari deb ham yuritiladi, masalan, ichdan o'qish (she'riy asarmi, prozaik asarmi) albatta, o'tkazilishi lozim, matn yuzasidan savol tuzib, uni o'quvchilarga berish, rasm (bo'lsa) yuzasidan suhbat, tanlab o'qish, qayta hikoyalash, to'g'ri, tez, ongli va ifodali o'qish kabi ishlar barcha darslarda o'tkazilishi mumkin. Qolgan ish turlaridan u yoki bu darslarda matnning hususiyatidan kelib chiqqan holda foydalanish tavsiya etiladi, ya'ni dialogga boy matnlardan dialoglarni ajratish, ko'p qismli (bo'limli) matnlarning qism (bo'lim) lariga sarlavha topish, personajlari ko'p matnlarni rollarga bo'lib o'qish, she'riy asarlarni, matnlarni taxlil qilayotganda qofiya, qofiyadosh so'zlarni aniqlash, ma'nosi notanish so'zlari mavjud bo'lgan matnlarni taxlil qilayotganda lug'at ustida ishlash kabi ish turlaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi tajribali, mahoratli bo'lsa, ikkinchi bosqich bo'lgan analiz (taxlil) ni juda qiziqarli va jonli o'tishga erishishga shubha yo'q. Chunki bunday o'qituvchilar mashg'ulotlarni ijodiy, o'quvchilarning ko'rgan – bilganlariga bog'lab olib boradilar. Mavzu atrofida, unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni ko'plab keltiradi, o'quvchilardan ham buni talab qiladi. Bolalarni zeriktirmaydilar. Nima qilib bo'lsa ham o'quvchilarni faollikka undab turadilar. Bunday o'qituvchilar matnni qayta – qayta o'qitaverishdek o'quvchini zeriktiruvchi, toliqtiruvchi ish turlaridan yiroq yuradilar, buning o'rniga darslik bilan ishlaydilar, mustaqil, ijodiy ishlar o'tkazishga harakat

qiladilar. Vaholangki, ikkinchi bosqich analizining mohiyat – e'tibori ham mana shundadir.

Uchinchi bosqich hisoblangan ikkinchi sintezni mohiyati birinchi sintez va analizning qanchalik yuqori saviyada, o'quvchilar faolligida jonli va qiziqarli o'tkazilishining natijasidir. Ikkinchi sintez bosqichida matn oxirida berilgan savol va topshiriqlar bilan ishlash, testlar o'tkazish, mavzuni hayotga, o'zi ko'rgan, bilgan, o'qigan voqeaga bog'liq, avvalgi sinflarda (3-4-sinf bo'lsa) o'tilgalarga bog'lash, ularga hos hayotiy misollar keltirish, mavzuga yo ijobiy, yo salbiy munosabat bildirish, o'z qarashlarini ifodalash, dunyoqarashini takomillashtirish, kasblar haqida suhbat, zarur xulosalar keltirib chiqarish, mavzu voqea – hodisalaridan ibrat (ijobiy) ola bilish xissini tarbiyalash, mavzuni maqol, matal, hikmatlar, xadislar bilan boyitish orqali uni hayotga bog'lash, mavzuni boshqa fanlarga, kasblarga bog'lash kabilar amalga oshiriladi. Shuningdek, mavzu (matn, asar) ning mazmunidan ta'sirlanish (ijobiy salbiy) holatlarini aniqlash va uni to'g'ri baholay bilish ko'nikma va malakalarini hosil qilish kabi me'eplar tarbiyalanadi.

O'qish darslarini asosan ona tili, odobnoma, tabiatshunoslik va boshqa fanlarga atroflicha bog'lash imkoniyatlaridan foydalanish mazkur fanlar yuzasidan beriladigan bilimlarinigina emas, balki bu darslar samaradorligini oshirishning ham muhim shartlaridan biridir.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlashning, o'qish darslari salohiyatini va samaradorligini oshirishning muhim sharti birinchi sintez – analiz –va ikkinchi sintez ekanligi, ularda

qilinadigan ishlar esa, bu bosqichlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning zaruriy sharti ekanligini unutmasligimiz kerak.

III.1. O`qish kitoblari va ularning o`quvchilarni o`qish darslarig bo`lgabn qiziqishini oshirishdagi ahamiyati

*Har kuni, har soatda fidoiy bo`lish o`zini tomchi va
tomchi , zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari
charchamay , toloqmay, tinimsiz safarbar etib boorish, bu
fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezonoga aylantirish
haqiqiy qahramonlik aslida mana shu .*

I.A. Karimov.

O`qish darslari o`z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko`ra boshlang`ich ta`lim tizimida alohida o`rin tutadi. O`qish kitobining asosiy vazifasi esa, bolada xalq og`zaki ijodiga, adabiyotga qiziqish o`yg`otish, kitobni sevish, undan mustaqil foydalana olish ko`nikmalarini shakllantirish, ma`naviy barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir. Albatta, bular matn ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

O`qish kitoblari savod o`rgatishdan so`ng keladigan darslik bo`lib, bu fanda bolalarning savod o`rgatish darslarini qay darajada o`zlashtirganini mustahkamlovchi bosqichlardan biridir. O`qish darslarida savod o`rgatishdan farqli ,she`rlar, hikoyalar, matnlar, tez aytishlar, topishmoqlar va boshqa matnlar-asarlardan o`rinda foydalaniladi.

III.2. „O‘qish –o‘rganish uchun hech qachon ham keksayib qolganman dema‘‘. (G Gersen)

Xulosa.

SHuni aytish kerakki, o`qish darslari boshlang`ich ta`lim tizimida keng va chuqur olib borilishi kerak. Sababi, bu fan o`quvchilarning nutqini o`stirishga va tafakkur doirasini kengayishi-yu nutq boyligiga hizmat qiladi. Shu sababli ham ushbu fan boshlang`ich sinflarda to`rt yoki besh soat haftada kiritiladi. O`quvchilarning yosh doirasiga qarab, haftalarga dars bo`linadi.

Sinf jamoasiga o`qish darsini o`tish biroz qulayroq. Chunki o`quvchiar bu fanga juda qiziqadi. Ertaklar o`qib berilganda ma`noli tinglab o`tiradi. Ertak tugagach, so`zlab berishga shoshiladi.

Darslikning «ertaklar-yaxshilikka yetaklar» bo`limida bir qator ertaklar berilgan bo`lib, turli mavzulardan hikoya qiladi. Ayrim ertaklarda rasmlar tasvirlangan bo`lib, shunday ertaklar o`tilganda o`quvchilarning yodida ertak qahramonlari ham voqealar ham qolganiga guvoh bo`lasiz.

Demak darslikni yaratish davomida ko`proq ko`rgazmalilikdan foydaanish yaxshi natijalarni berar ekan.

Shuningdek darslikdagi ayrim mavzularni Davlat ta`lim standartida ko`rsatilmasligi darslikning biroz talab darajasida emasligini ko`rsatadi.

Demak darsliklarni keng o`rganish, har tamonlama tashkil qilish zarur ekanligini unutmaslik kerak. Darsliklarimizni har tamonlama mukammallashtirilgan tarizda yaratish, faqat ma`naviy jihatdangina boy bo`lib qolmay, darsliklarning ko`rinish jihati va rasmlar ko`rinishiga ham alohida e`tibor berish kerakligini unutmaslik kerak. Shuningdek,

darsliklardan berilgan ertak, she`rlar va rivoyatlarning har bir bo`limlarga mos bo`lishiga e`tiborni qaratishimiz kerak. Darsliklarning Davlat ta`lim standarti talablariga javob berishi eng maqsadga muvofiq holdir.

Demak, darsliklarimiz ustida ko`proq ishlash, davlat ta`lim standarti talablariga mos va hos ravishda qayta tayyorlanadigan nashriga mukammal yaratish juda muhimdir.

Adabiyotlar ro'yhati:

I.Davlatning qonun va qarorlari.

- 1.Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi.Tashkent 2010-yil 143-bet.
- 2.Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi o'quv dasturi „Boshlang'ich ta'lim“ jurnali-Toshkent 2005-№ 5 21-33 betlar.
- 3.Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi.-Toshkent, 2010
- 4..Vazirlar Mahkamasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi haqidagi qonunlari. Xalq ta'limi. 1997-N=1

II.Prizdent asarlari.

- 5.Karimov I.A.,„O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li“ – Toshkent, O'zbekiston,1992.
- 6.Karimov I.A. „Bizdan ozod va obod vatan qolsin“Tashkent 1994-yil 229-bet
- 7.Karimov I.A. „O'zbekiston XXI asr bo'sag'sida“ Toshkent-„O'zbekiston“-1997.
- 8.Karimov I.A.,„Milliy istiqlol mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir“ Toshkent-„O'zbekiston“-2000.
- 9.Karimov I.A. „Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch“ Toshkent „Ma'naviyat“ 2008-yil 176-bet

III.Asosiy adabiyotlar.

10. G`offorova T, Shodmonov E, Eshturdiyeva G „O'qish kitobi“ 1-sinf uchun darslik-Toshkent „Sharq“ 2010- yil

11. G'offorova T, Shodmonov E, Eshturdiyeva G „O'qish kitobi" 1-sinf uchun darslik-Toshkent „Sharq" 2012- yil
- 12.O'qish darslari „1-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma" Toshkent 2010-yil
- 13.Abdullayeva Q va boshqalar „O'qish kitobi" (2-sinf uchun darslik) – „O'qituvchi" nashriyoti Toshkent 2010-yil
14. Abdullayeva Q va boshqalar 2-sinf o'qish darsligi «O'qituvchi uchun metodik qo'llanma" 2004-yil
- 15.G'offorova T, Nuraliyeva SH, Mirzahakimova Z,„O'qish kitobi"2-sinf uchun darslik „SHarq"Nashriyot-matbaa Aksiadorlik Kampaniyasi Toshkent-2012.
- 16.Umarova M,HakimovaSH „O'qish darslari" (3-sinf uchun darslikToshkent,„Cho'lpon" nashrioti 2010-yil
- 17.Umarova M,Hamroqulova X „O'qish darslari" (3-sinf uchun darslikToshkent,„O'zbekiston" nashrioti 2012-yil
18. Umarova M , Hakimova SH,„O'qish darslar" (3-sinf o'qituchilari uchun meto'dik qo'llanma) Toshkent 2008-yil. 21.Matjonov S va boshqalar „O'qish kitobi" (4-sinf uchun darslik) Toshkent „Yangi yo'l po'ligrapik servis" 2009-yil
- 19.Matjonov S va boshqalar,„O'qish kitobi" (4-sinf uchun darslik) Toshkent „Yangi yo'l po'ligrapik servis" 2011-yil
20. Matjonov S va boshqalar 4-sinf o'qish darslari o'qituvchilari uchun

meto`dik qo`llanma.Toshkent „Yangi yo`l po`ligrapik servisi” 2007-yil


IV.Qo’shimcha adabiyotlar

21. Qosimova K. va boshqalar „Ona tili o`qitish meto`dikasi” Toshkent-2009
22. Mahkamov F. „Ona tili o`qitish meto`dikasi” maruzalar matni 2006-yil
23. Nazarova X.„O`qish darsi-nafosat olami” boshlang`ich ta`lim jurnali. 2008-yil 11-son 5-bet.
24. Hotamova M. „Inter faol usullarini qo`llang”, „Marifat” gazetasi.2011-yil 23-febral 7-bet.
25. Nosirho`jayev S, Lafasov , Zaripov M „Manaviyat asoslari” 2-nashr Toshkent 2006-yil.
- 26.Boshlang`ich ta`lim 5/2005.B.4-5.
27. Mavlonova R. A. Rahmonqulova N.H. „Boshlang`ch ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. Toshkent-„Ilm ziyo”-2009.

V.Intirnet ma`lumoti.

- 28.Shojalilov.Sh.„Interfaol ta`lim usullari” Toshkent-2010
-

Ilovalar:



2 sinf
O'qish va nutq o'stirish
(136 soat)

O'qish mavzulari:

1. Ona yurtim –oltin beshigim (19 soat)

O'quvchilarga bizning ona yurtimiz–O'zbekiston Respublikasi, uning poytaxti Toshkent ekanini, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Farg'ona, Andijon, Namangan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent, Navoiy kabi viloyatlari borligi uqtiriladi .

Har kim o'z ona yurtini sevishi, uning tinch, go'zal bo'lishi uchun harakat qilishi o'quvchilarga hayotiy misollar bilan tushuntiriladi .

O'zbekiston xaritasidan mamlakatimiz hududi va undagi qadimiy shaharlar ota – bobolarimiz o'z ona ozodligi yo'lida kurashib kelganliklari, bugungi vatanimiz go'zalligi, xalq farovonligi yo'lida o'qish va mehnat qilish kerakligi haqida o'qtiriladi.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. O'zbekiston. 2. O'zbekiston – mening Vatanim. 3. O'zbekistonim. 4. Istiqlol. 5. Humo qushi. 6. Toshkent. 7. Toshkent metrosi. 8. O'lka. 9. Hikoyat. 10. El-yurt uchun fidoyi insonlar. 11. Sohibqiron bobomiz.
12. Vatan. 13. Bobom qurgan ko'prik. 14. Tilagim.

2. Maktabim – qutlug' makonim, kitobim- oftobim (12 soat)

O'quvchilarga maktab muqaddas dargoh, kitob mo'tabar ekanligi haqida amaliy tushunchalar beriladi. Ularga o'qituvchi ustoz-murabbiy ekanligi, u bolalarga bilim chashmalarini ochuvchi ulug' va mo'tabar inson sifatida e'zozlanishi, bilim manbai – kitobni sevish, ardoqlash, asrash o'quvchilarning burchi ekanligi, kitoblar ularga ko'p voqea-hodisalar haqida hikoya qilishi, shuning uchun ham ular katta boylik deb ta'riflanishi haqidagi bilimlar singdiriladi. O'quvchilarga kitob o'qish qoidalariga rioya qilish eslatiladi.

1. O'quvchiga esdalik. 2. Kitob. 3. Kitob deydi. 4. Orzular. 5. Mayib kitob. 6. Alisher bilan Bobur. 7. Shoir bilan shoh. 8. Navoiy hikmatlari. 9. Inoqlikda gap katta. 10. Barcha bola do'st bo'lsa. 11. Vaqt qadri. 12. Muallimim. 13. Bahs. 14. Maktabdan kelganimda. 15. Kitob. 16. Kitobimni qancha sevsam oz bo'lur.

3. Mehnat – baxt keltirar (10 soat)

Mazkur bo'limdagi matnlar o'quvchilarda mehnat qilishga, hunar o'rganishga ixlos qo'yish kabi xislatlarni tarbiyalaydi. O'quvchilarga mehnatkash ota-bobolarimizning mehnatdan baxt-saodat topganliklari, o'lkamizda bog'-rog'lar, ekinzorlar yaratganliklari, ularning faol mehnatlari haqidagi lavhalar tavsiya etiladi. Ular mehnat haqidagi hikmatli o'gitlar, maqol va masallar mazmuni bilan tanishtiriladi.

O'quvchilarga mehnat tufayli to'q-farovon yashash mumkinligi, bolalarning kattalarga yordami, ular oldida farzandlik burchini bajarishlari, orasta va saranjom- sarishta bo'lishlari, oila iqtisodi, tejamli bo'lish haqida tushunchalar beriladi.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Bilim ol, hunar tanla. 2. Ish ishtaha ochar. 3. Aka-uka. 4. Hunarli kishi xor bo'lmas. 5. Me'mor bo'laman. 6. Qaychi. 7. Kiyimlar nimalardan tikiladi?. 8. O'roq va kombayn. 9. Tejamli bo'ling.

4. Oltin kuz - hosiling yuz (6 soat)

Kuz fasliga doir asarlar. Kuzda insonlar mehnati, ularning tabiatga munosabatlari. Tabiatga sayr va sayohat. Kuz mavzusida insho yozish.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Kuz 2. Olma. 3. Dehqonbobo. 4. Kuz ne'matlari. 5. Bog'da. 6. Dehqonga ta'zim. 7. Kuzda.

5. Otalar so'zi – aqlning ko'zi (12 soat)

Odob–axloqqa doir fazilatlarini shakllantira borish, ota-bobolarimizning durdona fikrlarini yod olish, ularga amal qilish, ibratli voqea–hodisalar ifodalangan matnlarni o'qish, ulardagi ma'nolarni tahlil qilish, misollar keltirish. O'quvchilarda milliy an'analarga mehr uyg'otish.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Salom. 2. Suhbat odobi. 3. Dangasa o'g'il. 4. Iqrar bo'ldi. 5. Yolg'onchi.
6. Yosh bog'bonning qo'llari. 7. Ibn Sino bobo – ulashar davo. 8. Kuy sehri.
9. Oltin tarvuz. 10. Yaxshilikka yomonlik. 11. Kuychi terak. 12. Dadam

ishdan kelsalar.

6.Kumush qish – misoli oqqush (12 soat)

Qish tabiati, dala va bog'larning qishki ko'rinishi, o'quvchilarning qishki ta'til kunlari, qishki o'yinlar. Qorbobo, qorqiz - bolalar mehmoni. Qishda tabiatga sayr va sayohat.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Yil fasllari.
2. Qish manzarasi.
3. Qorboboning sarhisobi.
4. Javdar non.
5. Qish.
6. Musavvir Qorbobo.
7. Qishda.
8. Chumoli bilan chigirtka.
9. Qorbobo.
10. Tabiat.
11. Bayramingiz bo'lsin muborak.

7. Zumrad bahor – bahri diling ochar (16 soat)

Bahor tabiati, gullar, o'simliklarning hayoti, kishilarning mehnati, bolalarning o'yinlari haqidagi asarlar va she'rlar. 8-mart onalarimiz bayrami. Bahorda tabiatga sayr va sayohatlar.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Bahor.
2. Bahor keldi.
3. Nilufar.
4. Bahor.
5. Ko'klam yomg'iri.
6. Tomchi haqida ertak.
7. Kuyni sevgan gullar haqida ertak.
8. Jayron bolasi.
9. Bolalar o'ynasin deb.
10. Shamol botir.
11. Ona hurmati.
12. Ona aziz.
13. Gullar suhbat.
14. Marvaridgul.
15. Xaloskor.
16. Navro'z – bahor bayrami.
17. Sumalak

8. Qushlar, hayvonlar - bizning do'stimiz (5 soat)

Qushlar va hayvonlar haqidagi hikoyalar, she'rlar va ertaklar. Kishilarning jonivorlarga munosabati. Qushlar bayrami, Hayvonot bog'iga sayohat. Qushlar ona tabiatimizning bir bo'lagi ekanligi ularni mumkin qadar e'zozlash, ehtiyotlash ularni asrash kerakligi uqtiriladi.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Qushlar – bizning do'stimiz.
2. Tog'dagi voqea.
3. Oymoma.
4. Zarg'aldoq.
5. Turnalar.
6. Kuchukcha bilan uloqcha.
7. Yomg'ir.
8. Buzoq.

9. Ertaklar – yaxshilikka yetaklar (13 soat).

Ertaklar olamiga sayohat. Nima yaxshi-yu, nima yomonligini ertaklardagi voqea-hodisalar orqali uqib olish. Ertak qahramonlarining holatini so'zlab berish, voqealarni rasmda ifodalash.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Quyoshbobo nurlari. 2. Maqtanchiq ayiq. 3. Nima totli?
4. Ertaklar. 5. Mashhur rassom. 6. Baxtli bo'lish osonmas. 7. Ko'ngilchan o'tinchi. 8. Uzun terak. 9. O'jar baliqchi. 10. Dono dehqonbobo. 11. Quyuncha va ayyor tulki. 12. O'tinchi yigit bilan sher. 13. Urto'qmoq. 14. Oltin tuyoqli kiyik. 15. Oq ko'ngil chol va xasis boy. 16. Ko'p ko'rgan ko'p biladi.

10. Yoz – o'tadi soz (8 soat)

Yoz tabiati, pishiqchilik, o'quvchilarni yozgi ta'til kunlaridagi dam olishlari va mehnatlari haqidagi she'rlar, matnlarni o'qish hamda yod olish.

Yoz tabiati haqida hikoya tuzish, insho yozish.

Tabiatni kuzatish, sayr-sayohatga borish.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Erka chumolivoy. 2. Ob-havo darakchilari. 3. Yoz.

11. Tabiatni asrang, avaylang (6 soat)

Bolalarni tabiatga yaqinlashtirish maqsadida u haqidagi ajdodlarimizning nasihatlari, shoir va yozuvchilarning asarlaridan namunalar, matn mazmuniga mos rasmlar beriladi. Darslikda berilgan asarlar o'quvchilarni tabiatga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi.

Atrofimizdagi olam darsi bilan bevosita bog'lanib, mujassamlashgan savollar berish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

O'quvchilarning sinfda va mustaqil o'qishlari lozim bo'lgan asarlar:

1. Yashil odam – yaxshi olam. 2. Shudring. 3. Tonggi so'z. 4. Yulduzlar. 5. Tabiatning jonli bezagi. 6. Momaguldurak. 7. Aziz insonlar xotirasi.